

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XOLBOYEV A.M.

YARIMO'TKAZGJICHLI ASBOBLAR FİZİKASI

TOSHKENT 2004

UDK. 621.382 (075.8)

Xolboyev A. M. Yarimo'tkazgichli asboblar fizikasi o'quv qo'llanmasi.

Toshkent davlat texnika universiteti

Toshkent, 2004. 104 b.

Ushbu qo'llanmada yarimo'tkazgichli asboblar haqida nazariy va amaliy tushunchalar keltirilgan, ularning tuzilishi va ishlashi jarayoni, ular shxemalari, texnik xarakteristikalari va tajribada tekshirish usullari keltirilgan. Qo'llanma lotin shriftida yozilgan ilk risolalardan bo'lib, mazkur shriftda o'quvchi texnika oly o'quv yurti talabalari uchun yarim o'tkazgichli asboblar fizik asoslarini o'rGANISHD� zaruriy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qo'llanma texnika oly o'quv yurtlarining barcha muhandislik mutaxassisliklari, bakalavr va magistrleri, aspirantlari hamda shu sohada ishlovchi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

104 bet, 69 ta rasm va grafiklar, hamda 7 ta adabiyotlardan iborat.

Taqrizchilar: fizika-matematika fanlari doktori,
professor Zikrillayev N.F.,
texnika fanlari nomzodi, dotsent Akbarov G.A.,
fizika-matematika faniari nomzodi, dotsent Norqulov N.



Toshkent davlat texnika universiteti, 2004

Annotatsiya

Ushbu qo'llanmada yarimo'tkazgich materiallarining elektr va optik xususiyatlari, hamda ular asosida yasalgan qurilmalarga oid qisqa fizik va texnik tushunchalar keltirilgan. Yarimo'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligining zonalar nazariyasi, xususiy va aralashmali o'tkazuvchanlik, n-p o'tishning sodir bo'lishi tushuntirib o'tilgan.

Qo'llanmada yarimo'tkazgich va yarimo'tkazgichli asboblarga doir ba'zi laboratoriya ishlari va ularni bajarish usullari keltirilgan hamda nazorat savollari tuzilgan. Ishda o'rganiladigan yarimo'tkazgich asboblarning asosiy xarakteristikalarining ko'rinishi, ularni qanday qurish yo'llari ko'rsatilgan.

Mazkur qo'llanma texnika oliv o'quv yurtlari energetika, elektronika va avtomatika, informatsion texnologiyalar, mexanike va boshqa bir qancha mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrlar, aspirantlar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Kirish

Yarimo'tkazgich materiallari asosida tayyorlangan asboblar hozirgi zamondan taraqqiyotining barcha jahhalarida keng ko'lamba qo'llanilmoqda. Bunga sabab ularning vakuumli elektron asboblarga nishaten benihoya afzallik tomonlarining ko'pligidir. Bular o'chammlarining kichikligi, engilligi, ishlash vaqtining cheklanmaganligi, iqtisodiy tejamliliqi, arzonligi, soddaligi va mexanik jihatdan mustahkamligi (harakatlanuvchi qismlar yo'qligi) urilish, titrash va boshqalardan muhofaza qilish talab qilinmasligi va h.k. kabi muhim qulayliklaridir.

Yarimo'tkazgichli asboblarning sisati ular tayyorlanadigan materiallarning xossalari bilan aniqlanadi. Yarimo'tkazgichlar fani va texnikasining hozirgi zamondan yutuqlariga fiziklar, ximiklar texnologlar, elektrotexniklar va radioelektron-texniklarning birgalikdagi ko'p yillik mehnatlari evaziga erishildi.

Yarimo'tkazgichlarning xossalarni o'rganishni birinchilar qatorida M.Faradey 1837 yilda temperatura oshishi bilan kumush sulfidning elektr qarshiligi kamayishini, V.Smit esa 1873 yilda yorug'lik ta'sirida selen elektr qarshiligining kamayishini aniqladi. 1874 yilda F.Braun metal va oltingugurt aralashtirilgan metallar tutashtirilganda o'zgaruvchan elektr toklarini to'g'rakash xossasiga ega bo'lislarni aniqladi. 1826 yilda esa V. Adams va G. Deylar ta'qiqlovechi qatlamli fotoelement tayyorladilar. Shunday qilib yarimo'tkazgich materiallar va ulardan to'g'rilaqichlar sisatida foydalaniishlarga birinchi qadamlar qo'yilgan edi.

Yarimo'tkazgichli to'g'rilaqichlardan foydalaniish va ularni ishlab chiqara boshlashga L. Grendalning 1927- 29 yillarda mis oksidi asosida yaratilgan to'g'rilaqich asbobi ma'lum bir ma'noda sabab bo'ldi. 1930 yilda A.F. Iosse yarimo'tkazgichlar asosida termogeneratorlar tayyorlash g'oyasini surdi. Demak, yarimo'tkazgichli asboblarning ishlab chiqarilishi 1930 yillardan boshlandi. 1948-49 yillarda J. Bardin, V. Bratgeyn va V. Shokllilar yarimo'tkazgichli tranzistorlar yaratdilar. Bu esa yarimo'tkazgichlar elektronikasida olamshumul voqealarni bo'ldi. 1950

yillarda esa yarimo'tkazgichlar nazariyasiga fundamental asos solindi.

Keyingi yillarda har xil turdag'i yarimo'tkazgichi asboblar tez suratlar bilan ishlab chiqarila boshlandi. Diodlar, har xil quvvatli tranzistorlar, kremniy va germaniyidan tayyorlangan katta quvvatli diodlar, fotodiодlar, fototranzistorlar, quyosh batareyalari, tunnel diodlari va boshqalar ishlab chiqarildi. 1960 yillardan esa yarimo'tkazgich asboblar asosida elektron hisoblash mashinalari (EHM) ning yangi avlodlari ishlab chiqarila boshlandi.

1960 yilda Kong va Atalla birinchi funksional metall- oksid-yarimo'tkazgichli (MOP) tranzistorlari haqida yozishdi. Tashqaridani oddiy bo'lib ko'ringan va texnologiyasi uncha qiyin emasdek tuyulgan bu qurilmalar integral sxema (IS) larning asosini tashkil etib, keyinchalik EHMlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. MOP tranzistori ishlab chiqarishning murakkabligini tushunish uchun hozirgi fan va texnika yutuqlaridan foydalanib, ishlab chiqarilayotgan integral sxemalarning atigi 10 foizi samoatda foydalanishiga yaroqli, qolgan qismi esa u yoki bu sabablarga ko'ra yaroqsiz bo'layotganini aytib o'tish kifoya. Yarimo'tkazgich asbeblarining hali istiqboli kengdir.

Shuning uchun yarimo'tkazgichli qurilmalarning asosiy fizik xususiyatlarini o'rGANISHNING ba'zi bo'limilarini ko'p sonli o'quvchi va talabalarga taqdim etishni mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadi qilib olindi.

I - bob.Yarimo'tkazgich kristallarida fizik hodisalar

I.I. Kristallarda zonalar nazariyasi asoslari

Tugunlarida atom yadroлari joylashgan kristal panjara uchun bu panjaraning holatini aniqlovchi to'lqin funksiyasi F , hamma elektronlarning koordinatalari, r_i va hamma yadrolarning koordinatalari R_i dan bog'liq, yani :

$$\Phi = \Phi(\vec{r}_1, \vec{r}_2, \vec{r}_3 \dots \vec{r}_i; \vec{R}_1, \vec{R}_2, \vec{R}_3, \dots \vec{R}_j) \quad (1.1)$$

(1.1)-ni hisobga olgan holda kristal panjara uchun Shryondenger tenglamasini quyidagi ko'rinshda yozish mumkin:

$$\sum_{26} \frac{\hbar^2}{2m} \nabla_i^2 \Phi + \sum_j \frac{\hbar^2}{2M} \nabla_j^2 \Phi + (E - V)\Phi = 0 \quad (1.2)$$

bu yerda; m - elektronning massasi; M - yadroning massasi; E - sistemaning to'liq energiyasi; V -hamma elektron va yadrolarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi ; $\hbar = \frac{h}{2\pi}$; h - Plank doimiysi.

O'zgaruvchilar soni ko'p bo'lganligi uchun (1.2) tenglamani umumiy holda yechib bo'lmaydi . Shuning uchun ham zonalar nazariyasida (1.2) tenglamani soddalashtirish maqsadida bir qator taxminlar qo'llaniladi. Bu birinchi navbatda adiabatik taxmin bo'lib, u r_i va R_i o'zgaruvchilarni ikkiga ajratishga va (1.2) tenglamani ikkita tenglamaga (biri faqat elektronlarga, boshqasi faqat yadroga munosib) ajratish imkonini yaratadi. Adiabatik taxmindan barcha elektronlar muvozanat vaziyatida bo'lgan yadro maydonida harakatlanadi deb hisoblanadi. Bu taxmin assosida Shryodeger tenglamasini har biri bitta elektronga taalluqli bo'lgan tenglainalar yig'indisiga keltirish mumkin. Masalani bunday soddalashtirishga bir elektronli taxmin deb ataladi.

Taxminlar asosida (1.2) tenglamani qattiq jismni har bir elektron uchun quyidagicha ko'rinishda yozish mumkin

$$[-\frac{\hbar^2}{2m} \nabla_i^2 + V(\vec{r}_i)] \Psi(\vec{r}_i) = E_i \Psi(\vec{r}_i) \quad (1.3)$$

bu yerda, $\Psi(\vec{r}_i)$ - elektronning to'lqin funksiyasi; E_i -

elektronning to'liq energiyasi: $U(\vec{r}_i)$ - elektronning potensial energiyasi.

Kristalning davriy tuzilishga ega ekanligini e'tiborga olib, kristaldagi elektronning potensial energiyasi $U(\vec{r})$ ham davriy xarakterga ega degan xulosaga kelish mumkin. $U(\vec{r})$ funksiyaning davriyligini e'tiborga olib Blox. (1.3)ni quyidagi funksiya ko'rinishida ifodaladi:

$$\Psi_{\vec{k}}(\vec{r}) = V_{\vec{k}}(\vec{r}) \exp(i\vec{R}\vec{r}) \quad (1.4)$$

$V_{\vec{k}}(\vec{r})$ kristal panjaraning uch o'lehamli davriyligiga ega bo'lgan funksiysi. \vec{R} vektori moduli (1.5)ga ega bo'lgan to'lqin vektori hisoblanadi.

$$|\vec{R}| = \sqrt{k_x^2 + k_y^2 + k_z^2} \quad (1.5)$$

(1.4) tenglamadagi $V_{\vec{k}}(\vec{r})$ funksiyaning davriylik shartidan kelib chiqadi, kristal panjara to'lqin vektori \vec{R} , panjara doimiysi a va kristaldagi atomlar miqdori $N=N_x N_y N_z$ lar dan bog'liq bo'lgan diskret qiymatlar qabul qiladi:

$$k_x = \frac{2\pi}{aN_x} n; k_y = \frac{2\pi}{aN_y} n; k_z = \frac{2\pi}{aN_z} n \quad (1.6)$$

bu yerda $n = \pm 1, \pm 2, \pm 3, \dots$ butun qiymatlar qabul qiladi.

Agar elektronlarning to'lqin funksiyasi kristal panjara doimiysi a ga teng masofada joylashgan qo'shi atomlar bilan qoplanayotgan bo'lsa, unda (1.4)ga to'g'ri keluvchi elektronlar energiyasi $E(\vec{k})$ ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$E(\vec{k}) = E_a + C_a + 2A_a [\cos k_x a + \cos k_y a + cjsk_z a], \quad (1.7)$$

bu yerda, E_a -izolyatsiyalangan atomdagи elektronning to'liq energiyasi; C_a -elektronning kristal atomiga kiritilgandagi olgan qo'shimcha kulon o'zaro ta'sir energiyasi; A_a -qo'shi atomlarning o'zaro ta'sir paytida almashgan energiyasini hisobga oluvchi


almashuv integrali.

Ruxsat etilgan energetik zonalar tuzilishini (1.7) ifodadan foydalaniб tushuntirish mumkin.

(1.6). tenglamani to`lqin vektori k ning quyidagi (1.8) oraliqlarida yechish, uning ruxsat etilgan zonada N ta qiymat qabul qila olishini ko`rsatadi.

$$-\pi \leq k_x a \leq \pi; -\pi \leq k_y a \leq \pi; -\pi \leq k_z a \leq \pi. \quad (1.8)$$

Elektron, o'tkazuvchanlik jarayonida qatnashishi uchun elektr maydon hisobidan qo'shimcha energiya olib, yuqori energiyali sathga o'tishi kerak. Agar hamma energetik sathlar elektronlar bilan to`la bo'lsa, bunday o'tishning imkoniyati yo'q. Shunday qilib, kristall qattiq jism absolyut nol temperaturada yuqoriroq energetik sathlarning qisman yoki butunlay to'laligiga qarab, o'zini metal yoki dielektrik sifatida namoyon qiladi.



1.1- rasm. Kristallarda zonalar tuzilishi.

Dielektrik holida atomlar valent elektronlari holatidan yuzaga kelgan yuqori to`ldirilgan zona, valent zona deb atalaди. Keyingi absolyut nol temperaturada bo'sh bo'lgan energiyaning ruxsat etilgan qiymatlari zonasasi, o'tkazuvchanlik zonasasi (yoki erkin zona) deyiladi.

Valent zona. o'tkazuvchanlik zonasidan, elektronlar uchun

ta'qiqlangan energiyaning ma'lum qiymatli kengligi bilan ajralib turadi, bu ta'qiqlangan zona deyiladi (I.1- rasm).

Absolyut noldan yuqori temperaturalarda valent zonadagi elektronlarning bir qismi issiqlikdan uyg'onishi natijasida valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tish uchun yetarli bo'lgan energiyaga ega bo'ladi (I.1- rasm). Natijada o'tkazuvchanlik zonasidan n miqdordagi o'tkazuvchanlikda qatnashishi mumkin bo'lgan elektronlar konsentratsiyasi oshadi. Bu vaqtida valent zonada ham shuncha miqdordagi o'tkazuvchanlikda qatnashishi mumkin bo'lgan bo'sh holatlar paydo bo'ladi. Valent zonani yuqori chegarasi yaqinida elektronlar konsentratsiyasi katta, shuning uchun valent zonada kovaklar tushunchasi qo'llaniлади.

Elektr o'tkazuvchanlik kattaligi qattiq jism ta'qiqlangan zonasi kengligiga bog'liq bo'lgan erkin zarralar (elektronlar va kovaklar) konsentratsiyasiga proporsional. Ta'qiqlangan zonasi keng bo'lgan moddalarning elektr o'tkazuvchanligi kam bo'lib, dielektriklar sinfiga, tor ta'qiqlangan zonaga ega bo'lgan moddalar esa -- yarimo'tkazgichlar sinfiga kiradi. Nometal qattiq jismlarda bunday bo'linish shartlidir, chunki yarimo'tkazgich va dielektriklar orasidagi farq faqatgina ta'qiqlangan zona kengligidadir[1].

Ta'qiqlangan zona kengligi yarimo'tkazgich moddalar uchun muhim parametr hisoblanib, ko'p hollarda uning xususiyatini belgilaydi.

I.II. Zaryad tashuvchilarining magnit maydonidagi harakati

Ma'lumki \vec{H} magnit maydonida $\vec{\vartheta}$ tezlik bilan harakatlanayotgan e elektr zaryadiga Lorens kuchi ta'sir qiladi:

$$F = e\mu\mu_0[\vec{v}\vec{H}] \quad (1.9)$$

Bu kuchning yo'naliishi \vec{H} magnit maydoniga joylashgan e zaryad tashuvchining ishorasiga va $\vec{\vartheta}$ tezlikning vektor ko'paytmasi $[\vec{v}\vec{H}]\vec{\vartheta}$ liga bog'liq. Agar tok tashuvchilarining tezligi $\vec{\vartheta}$, magnit maydon kuchlanganligi \vec{H} ning yo'naliishiga perpendikulyar bo'lsa, tok tashuvchilar Lorens kuchi ta'sirida $\vec{\vartheta}$ va \vec{H} yo'naliishlariga

perpendikulyar ravishda harakatlanadi. Buning natijasida zaryadlarning fazoviy bo'linishi yuzaga keladi va E_u elektr maydoni paydo bo'ladi.

Statsionar holatda zaryadga ta'sir qiluvchi eE_u kuch Lorens kuchiga teng bo'ladi:

$$eT_u = e\mu\mu_0 vH = evB \quad (1.10)$$

bu erda, $B = \mu\mu_0 H$ -magnit induksiyasi; μ -yarim o'tkazgichlarning nisbiy magnit kirituvchanligi; μ_0 -magnit doirniysi.

Agar zaryad tashuvchilarining barchasi manfiy zaryadlardan iborat va konsentratsiyasi n bo'lsa, hosil bo'lgan elektr maydon kuchlanganligini tok zichligi orqali yozish mumkin:

$$E_y = \frac{jB}{ne} = RjB \quad (1.11)$$

bu erda, $R = \frac{1}{ne}$ – Xoll koefitsienti.

Elektr toki o'tayotgan o'tkazgichni magnit maydoniga joylashtirilganda E_y elektr maydoni va unga mos keluvchi potensiallar farqi hosil bo'lishi hodisasi Xoll effekti deyiladi.

I.III. Xoll effekti

Zaryad tashuvchi zarrachalarga elektr \vec{E} va magnit \vec{H} maydonlarining birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan hodisalar galvanomagnit effektlar deb yuritiladi. Xoll effekti galvanomagnit effektlaridan biridir.

Xoll effektini kuchsiz magnit maydonida qarab chiqamiz. Kuchsiz magnit-maydoni bu zaryad tashuvchilarining relaksasiya vaqtleri τ , ularning magnit maydonidagi doiraviy orbitalardagi aylanish davrlari T_s dan juda kichik bo'lgan magnit maydoni tushuniladi

$$\tau \leq T_s \quad (1.12)$$

Ma'lumki, magnit maydonidagi doiraviy orbitalardagi, effektiv massasi m bo'lgan zaryad tashuvchilarning avlanish chastotasi

$$\omega_c = \frac{e}{m} B, \quad (1.13)$$

(1.13) ni hisobga olgan holda kuchsiz magnit maydoni sharti (1.12)ni

$$\tau \ll \frac{m}{e} \frac{2\pi}{B} \quad (1.14)$$

ko'rinishda va unda $\mu = \frac{\omega}{m}$ - zaryad tashuvchilarning harakatchanligi ekanligini e'tiborga olib,

$$\mu B \ll 1 \quad (1.15)$$

ni hosil qilamiz. Bu shart odatda kuchsiz magnit maydoni kriteriyasi hisoblanadi.

Xoll effekti harakatlanayotgan zaryadli zarrachalarga elektr \vec{E} va magnit \vec{H} maydonlarida

$$\vec{F} = e \left\{ \vec{E} + \left[\vec{\vartheta} \cdot \vec{B} \right] \right\} \quad (1.16)$$

kuch ta'sir qilayotganda yuzaga keladi.

Bu kuch ta'sirida Bolsmanning kinetik tenglamasi (1.17) ko'rinishini oladi.

$$\dot{\vec{r}} \Delta_r f + \frac{t}{h} \left\{ \dot{\vec{E}} + \left[\vec{\vartheta} \cdot \vec{B} \right] \right\} \Delta_R = - \frac{f - f_0}{\tau} \quad (1.17)$$


bu yerda, f_0 va f - muvozanatlari va muvozanatsiz termodinamik holatlar taqsimot funksiyasi.

Shunday qilib, muvozanatsiz taqsimot funksiyasi ma'ium bo'lsa bir jinsli yarimi o'tkazgichlarda summar tok zichligi $\vec{j} = \vec{j}_n + \vec{j}_p$ -ni aniqlash mumkin.

Elektron va teshiklar konsentratsiyalari n va p-harakatchanliklari μ_n va μ_p bo'lgan yarim o'tkazgichlar uchun tok zichligi ifodasi quyidagidan ihorat bo'ladi.

$$\vec{j} = e(n\mu_n + P\mu_p) \dot{E} + ve(n\mu_n^2 - P\mu_p^2) \left[\vec{B} \cdot \vec{E} \right]. \quad (I.18)$$

bu yerda, v -zaryad tashuvchilarning relaksatsiya vaqtiga $\tau(k)$ bilan aniqluvchi koefitsient.



1.2- rasm. Xoll koefitsientini aniqlash uchun namuna.

Agar elektr toki x o'qi bo'ylab, magnit maydoni N esa y o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'lsa (1.2-rasm.) (I.18) tenglamasi ikkiga ajraladi:

$$j_x = j = e(n\mu_n + P\mu_p)E_x - vR(n\mu_n^2 - P\mu_p^2)BE_y; \quad (I.19)$$

$$j_y = 0 = e(n\mu_n + P\mu_p)E_y - ve(n\mu_n^2 - P\mu_p^2)BE_x. \quad (I.20)$$

Bu tenglamalarni E_y ga nisbatan yechib, Xoll maydoni kuchlanganligini topamiz:

$$E_y = \frac{v}{e} \frac{P\mu_p^2 - n\mu_n^2}{(P\mu_p + n\mu_n)^2} jB = RJB \quad (I.21)$$

bu yerda,

$$R = \frac{v}{e} \frac{P\mu_p^2 - n\mu_n^2}{(P\mu_p + n\mu_n)^2} \quad (I.22)$$

Xoll koefitsienti.

Bir xil ishorali zaryad tashuvchilar uchun (I.22) soddalashadi:

Elektronlar uchun

$$\left. \begin{array}{l} R = -v \frac{1}{ne} \\ R = v \frac{1}{pe} \end{array} \right\} \quad (I.23)$$

kovaklar uchun

Xoll koefitsienti ishorasiga qarab moddalardagi zaryad tashuvchilar ishorasini aniqlash mumkin. Aralashmali o'tkazuvchanlik hamda Xoll koefitsienti ishorasi elektron va teshiklar konsestratsiyasi va harakatchanligi orqali (I.22) dan aniqlanadi. Xususiy yarim o'tkazgichlarda ($n=p$) Xoll koefitsienti manfiy: chunki elektronlar harakatchanligi katta.

Tegishli namuna uchun Xoll koefitsienti va elektr o'tkazuvchanligi $\sigma = en\mu$ ni bilgan holda tok tashuvchilarning Xoll maydonida harakatchanligi μ ni aniqlash mumkin:


$$\mu = |R| \sigma \quad (I.24)$$

Aralashmali yarimo'tkazgichlar uchun amalda (I.22) ifodasi va o'tkazuvchanlikning $\sigma = e(nb + p)\mu$, ifodalarini aniq hisoblash juda qiyin, chunki noma'lum parametrlar (n, p, b, μ, v)soni ko'payib ketadi.


II-bob. Yarim o'tkazgichlarda yorug'likning yutilishi

II.1. Xususiy yutilish.

Agar yarimo'tkazgich nurlanish kvantini yutganda, valent zonadagi elektronlar, ta'qiqlangan zona kengligiga teng yoki undan



II.- 1-rasm Anatimonid xususiy yutilish.



II.- 2-rasm Germaniyning Energetik zonalari.

ortiq qo'shimcha energiyani olib, o'tkazuvchanlik zonasiga o'tsa, bunday yutilishga xususiy yoki fundamental yutilish deyiladi. Yarimo'tkazgichlarning xususiy yutilishini o'rganishda uning energetik zonalari tuzilishiga e'tibor berish kerak. Hozirgi zamonda ma'lum bo'lgan yarimo'tkazgichlar energetik zonalari konfiguratsiyasiga qarab ikkita asosiy ko'rinish ga bo'linadi.

Bulardan birinchiisida, o'tkazuvchanlik zonasidagi to'lqin vektori \vec{R}_{\min} bilan xarakterlanuvchi minimum energiyasi va valent zonadagi to'lqin vektori \vec{R}_{\max} bilan xarakterlanuvchi maksimum energiyasi Brillyuen zonasi (bu nuqtada $\vec{R} = 0$) ning bir nuqtasida joylashgan. Boshqacha aytganda bunday yarimo'tkazgichlarda $\vec{R}_{\min} = \vec{R}_{\max}$ (II.1-rasm). Bunday yarimo'tkazgichlarga misol qilib, antimonid indiyini keltirish mumkin.


Ikkinci tur moddalarda o'tkazuvchanlik va valent zonalari ekstremal qiymatlari \vec{R} ning turlicha ya'ni $\vec{R}_{\min} = \vec{R}_{\max}$ qiymatlarida joylashadi. Bu turdagji moddalarga ko'pchilik yarimo'tkazgichlar jumladan germaniy va kremniylar kiradi (II.2-rasm)

Elektronning elektromagnit nurlanish maydoni bilan o'zaro ta'sirlashuvida energiyaning saqlanish qonuni va kvazi impuls yoki to'lqin vektori \vec{R} ning saqlanish qonuni bajarilishi kerak :

$$E_a^{2,n} = E_a^{2,s} + h\nu\phi \quad (\text{II.1})$$

$$\vec{R}_s = \vec{R}_a + \vec{\eta} \quad (\text{II.2})$$

Bu erda \vec{R}_a, \vec{R}_s - elektronning boshlang'ich va oxirgi holatlaridagi to'lqin vektori; $\vec{\eta}$ - nurlanish kvantini to'lqin vektori.



II.3-rasm Germaniyda yorug'likning yutilishi.

To'g'ri yoki vertikal bo'limgan o'tishlar foton chiqarish yoki yutish tufayli yuzaga keladi. To'g'ri va noto'g'ri o'tishlar germaniyning yutilish spektlarida yetarlicha aniq namoyon bo'ladi. (II.3 rasm) dan germaniydagи fotonlarning to'g'ri va noto'g'ri o'tishlariga to'g'ri keluvchi chegaraviy energiyasi uy temperaturasida 0,81 va 0,62 V ni tashkil qiladi.

Suyuq azot temperaturasida esa 0,88 va 0,72 V.

II. II. Eksiton yutilish

Yarimo'tkazgichlar yorug'likni yutganda valent zona elektronlarining shunday uyg'ongan holati yuzaga keladiki - unda elektron o'tkazuvchanlik zonasiga o'tmasdan kovak bilan birlashgan sistema hosil qiladi. Bunday sistema eksiton nomini oladi. Agar eksitonning o'lchamlari panjara doimiyidan o'ta yuqori bo'lsa, elektron va kovaklarning o'zaro ta'sirini ikkita nuqtaviy zaryad orasidagi EE_e marta kamaygan kulon o'zaro tasiri shaklida ifodalash mumkin.

Shryodenger tenglamasini elektron va kovaklar o'zaro ta'sirlashuvida qo'llab eksitonning to'liq energiyasini topish mumkin.

$$E_{ex} = \frac{n^2}{2M} R^2 ex - \frac{R^1}{n^2} \quad (II.4)$$

(II.2) tenglamada \vec{R} vektorining son qiymati juda kichik, 300* K da ($5 \cdot 10^{-7}$ sm) bo'lganligi uchun uni hisobga olmasa ham bo'ladi.

$$\text{Shuning uchun } \bar{R}_a = \bar{R}_n \quad (II.3)$$

(II.3)ni elektron o'tishlarning tanlash qoidasi deyiladi. Elektronning optik nurlanish maydoni bilan ta'sirlashuvida to'lqin funksiyalari saqlangan holatlar vertikal yoki to'g'ri o'tishlar deb nomlanadi (II.2-rasm 1-o'tish).


Bu yerda, $M = m_n + m_p$ eksitonni massasi, R^1 - doimiy, m_n, m_p, E lar. Izotroplik sharti va optik o'tish to'g'ri va $R=0$ da sodir bo'layotgan bo'lsa, eksiton yutilish chizig'ining vodorodsimon seriyasi bilan xarakterlanadi (II.4 rasm).

Eksitonni vodorodsimon seriyasi quyidagi tenglikni qanoatlanadiradi.


$$hv = hv_\infty - \frac{R^1}{n^2}, \quad (II.5)$$

Bu yerda, hv_∞ - ta'qiqlangan zona bilan $R=0$ da mos tushadi.

Shuni ham aytib o'tish joizki zamonaliviy nazariyalarga asosan eksitonni yutilish spektrlari vodorodsimon bo'lmasligi ham mumkin.



II.4 - rasm.
Eksitonning energetik
sathi.



II.5 - rasm. Alyuminiiyning kremniy
panjarasida aralashmali yutilish (N_a
aralashmalar konsentratsiyasi).

II.III Aralashmali yutilish.

Kristallardagi kirishma markazlari ionlashuvi va uyg'onishidan vujudga kelgan optik yutilishi aralashmiali deyiladi. Ma'lumki, donorli va akseptorli aralashmalari bo'lgan yarimo'tkazgichlar ta'qiqlangan zonasida lokal energetik holatlar paydo bo'ladi. Yarimo'tkazgichlarga yorug'lik tushganda uzluksiz

polosali yutilish kuzatiladi. Bu elektronlarning aralashmalar energetik sathidan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi tufayli yuzaga keladi. Shunday yo'l bilan valent zona elektronini yorug'lik tushirish bilan akseptor holatiga o'tkazish mumkin.

Kirishmali markazlar asosiy holatdan tashqari uyg'ongan energetik sathga ham ega bo'lishlari mumkin. Aralashma elektronlarni uyg'ontirish, ya'ni ularni asosiy holatdan uyg'ongan holatga o'tkazish, yorug'likning yutilishiga olib keladi. Bunda spektrda bir qancha polosalar kuzatiladi. (III.5 - rasm)

Yarimo'tkazgich kristal panjarasida aralashmalar ionlashuv energiyasi, Shryodenger tenglamasi asosida topiladi va u donorli aralashmalar uchun quyidagicha:

$$E_d = -13,6 \frac{m_n}{m_o} \cdot \frac{1}{E^2} . \quad (\text{III.6})$$


Bunda, m_n - elektronning effektiv massasi, m_o - erkin elektronning massasi, E - kristalning nisbiy dielektrik kirituvchanligi.

Germaniy panjarasida joylashgan donor aralashmasi atomi uchun, $M_n = \frac{1}{4} M_o$ va E = 16 shartda, $E_d = 0.01$ eV ni hosil qilamiz.

Xuddi shunday hisoblashni akseptor aralashmasi uchun ham bajarish mumkin.

II. IV. Erkin elektronlarda yutilish

Yarimo'tkazgichlarga tegishli to'lqin uzunligidagi yorug'lik nuri tushganda o'tkazuvchanlik zonasini elektronlari va to'lqin to'ldirilmagan valent zona elektronlari, zona ichidagi bir sathdan boshqa sathga o'tishi mumkin. Bunday ichki o'tishlar tanlash qoidasi buzilgan holda yuzaga keladi. Impulsning



II.6-rasm. P-tipli germaniyning yutilish egri chizig'i.

saqlanish qonuniga bo'ysungan holda foton yutish bilan bir qatorda, fonon yutilishi yoki chiqarilishi yuzaga keladi. Bu yutilish erkin zaryad tashuvchilar konsentratsiyasiga, tushayotgan yorug'lik tølqini uzunligi λ kvadratiga va dreyf harakatchanligi μ ga teskari

proporsionaldir : $R = \frac{n\lambda^2}{\mu}$ (II.7)


II.6 -rasmda germaniyda xususiy yutilish, 2 va 3 maksimumlar valent zonasidagi kovaklarni energetik zonalardagi o'zaro o'tishidan yuzaga keladi.

Yarimo'tkazgichlarda yuqorida ko'rib o'tilgan yutilishlardan tashqari kristal panjarada yutilish ham kuzatiladi.

III-bob. Yarimo'tkazgichlarda foto'o'tkazuvchanlik

III.1. Ichki fotoeffekt

Ichki fotoeffekt – bu qo'shimcha muvozanatsiz zaryad tashuvchilarni yuzaga keltiruvchi yorug'lik ta'sirida yarimo'tkazgichlarning ichki ionlashuv jarayonidir, ichki fotoeffektga asoslangan qo'shimcha o'tkazuvchanlik foto'o'tkazuvchanlik deyiladi.



III.1 rasm. Ta'qiqlangan zonasidagi elektronning mumkin bo'lgan optik o'tishlari sxemasi.

Ichki fotoeffektda birlamchi jarayon ma'lum energiyali fotonni yutish. Fotonning energiyasi, yarimo'tkazgichning ta'qiqlangan zonasida joylashgan elektronini o'tkazuvchanlik zonasiga (III. 1-rasm, 1 va 2 o'tishlar), yoki energiyaning lokal holatiga (3-o'tish), o'tkazish uchun etarli

bo'lishi kerak. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 1- o'tish elektron - kovak juftini hosil qilsa, 2 va 3 o'tishlarda faqat bir xil ishorali zaryad tashuvchilar paydo bo'ladi.

Agar optik uyg'onish valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tgan elektronlardan sodir bo'lsa, unda musbat va manfiy

ishorali zaryad tashuvchilar sodir qilgan xususiy fotoottkazuvchanlik kuzatiladi. Bunda fotonning energiyasi $h\nu$, yarimo'tkazgich ta'qilangan zonasini kengligidan kam bo'lmasligi ($h\nu \geq \Delta E$) kerak.

Kristall panjara uchun to'g'ri va noto'g'ri o'tishlarga mos keluvchi to'liq to'lqin soni R ning saqlanishi qonuni o'rini bo'ladi. Agar o'tish foton va elektronlarning o'zaro


III. 2-rasm. To'g'ri 1 va noto'g'ri zonalarda optik o'tish.

ta'siridan sodir bo'layotgan bo'lsa, unda to'g'ri optik o'tish o'rini bo'ladi. (III.2-rasm, 1-o'tish). Ammo kristal panjarada sezilarli darajada murakkabroq bo'lgan jarayonlar, foton, elektron va fonon (kristall panjaraning tebranish kvanti) o'zaro ta'sirlar ehtimoliyati kuzatiladi. Bundan o'zaro ta'sir natijasida elektron asosan fotonni energiyasini oladi va fonon hisobiga o'zining to'lqin sonini o'zgartiradi (III.2-rasm, 2-o'tish). Bunday o'tish noto'g'ri (novertikal) optik o'tish deyiladi.

Murakkab energetik zonalar holida to'g'ri optik o'tishga termik o'tish energiyasidan katta bo'lgan energiya mos keladi. Noto'g'ri o'tish ehtimoliyati to'g'ri o'tish ehtimoliyatidan kichik bo'lganligi uchun to'g'ri o'tishga mos keluvchi fotonning yutilish spektrida, yutilish va fotoottkazuvchanlikning keskin oskishi kuzatilishi zarur.

III. II. Fotoottkazuvchanlik

Yuqori energiyali fotonlar bilan o'zaro ta'sirlashishdan paydo bo'lgan muvozanatsiz elektron va kovaklar, ionlashuv jarayoni tugashi hamon muvozanatli zaryad tashuvchilar ega bo'lgan kT miqdordagi o'rtacha energiyadan kattaroq bo'lgan energiyaga ega bo'ladir. Ammo fononlar va kristall panjara defektlari bilan o'zaro ta'sir natijasida muvozanatsiz zaryad tashuvchilar tezda panjara temperaturasini egallaydi va ularning energiyasi muvozanatli zaryad tashuvechilarning o'rtacha issiqlik energiyasiga tenglashadi. Bu



jarayon zaryad tashuvchilarining relaksatsiya vaqtı, deb ataluvchi 10^{-10} sek ga teng bo'lgan vaqt davomida yuzaga keladi. Qoidaga binoan muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining yashash vaqtı $\tau(10^{-2} \dots 10^{-3} \text{ sek})$, bu esa undan sezilarli darajada kattadir. Xulosa qilish mumkinki rekombinatsiyagacha bo'lgan yashash vaqtining katta qismida ularning kinetik energiyalari muvozanatli zaryad tashuvchilarining issiqlik energiyalariga mos keladi. Shuning uchun, zonalardagi muvozanatli va muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining energiya bo'yicha taqsunlanishi mos keladi, deb hisoblash mumkin va demak, ularning harakatchanligi μ ham bir xil [2].

Shunday qilib, yorug'lik ta'sirida zaryad tashuvchilarining yuzaga kelishi yarim o'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanligi σ ning o'zgarishiga olib keladiki, u muvozanatsiz elektronlar $\Delta\rho$ bo'lgan hol uchun quyidagicha yoziladi.

$$\sigma = e[(n_0 + \nabla n)\mu n + (p_0 + \nabla p)\mu n], \quad (\text{III.1})$$

bu erda, n_0 va p_0 - muvozanatli elektronlar va teshiklar konsentratsiyasi.

Fotoo'tkazuvchanlik σ_ϕ , yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi σ va yorug'lik tushmagandagi o'tkazuvchanligi σ_0 larning farqiga teng:

$$\sigma_\phi = \sigma - \sigma_0 = \epsilon(\mu_n \nabla n + \mu_p \nabla n). \quad (\text{III.2})$$

Tabiiyki, yarimo'tkazgichdagi muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentratsiyalari (Δn va Δp) yorug'likning intensivligi va davomililik vaqtiga bog'liq.

Yorug'lik manbaini juda tez yoqib-o'chirish paytidagi muvozanatsiz zaryad tashuvchilarining relaksatsiya (o'sish va kamayish)si doimiy vaqtı τ bilan eksponensial qonun bo'yicha o'zgaradi:

$$\text{O'sishi} \quad \Delta n = \Delta n_0 (1 - e^{-\frac{t}{\tau}}) = \tau B R J (1 - e^{-\frac{t}{\tau}}), \quad (\text{III.3})$$

$$\text{Kamayishi} \quad \Delta n = \Delta n_0 e^{\frac{t}{\tau}} = \tau B R J e^{\frac{t}{\tau}}, \quad (\text{III.4})$$


Bu yerda, $\beta \leq 1$ - kvantlash koefitsienti, R - yutilishi koefitsienti, J - yorug'likning intensivligi, e - natural logarifm asosi, t - vaqt.

Muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi uchun keltirilgan analitik bog'lanish muvozanatsiz statsionar o'tkazuvchanlik (konsentratsiya)ning yorug'lik intensivligidan o'zgarish qonunini aniqlash imkonini beradi. Bu yarim o'tkazgichning lyuks-amper xarakteristikasi - deb yuritijiadi. Rekonibimatsiyani chiziqli qonunida, ya'ni muvozanatsiz zaryad tashuvchilar yashash vaqtin yorug'lik intensivligidan bog'liq bo'limgan holda lyuks-amper xarakteristika chiziqli, chunki III.3 va III.4 da, $t \rightarrow \infty$ dagi muvozanatsiz zaryadlar konsentratsiyasi Δn_e , yorug'lik intensivligi J ga proporsional:

$$\Delta n_e = \tau \cdot \beta \cdot R \cdot J \quad (\text{III.5})$$

III.3. Aralashmali foto'o'tkazuvchanlik

Lokal qurilmali nurlanish sathlari mavjud bo'lgan yarino o'tkazgichlar ta'qiqlangan zonasida, issiqlikdan uyg'onishga o'xshash, elektronlarning nurlanish sathi va zonalari orasidagi o'tishi yuzaga kelishi mumkin (III.1-rasm, 3-3 o'tishlar). Bunday o'tishlar tusayii amalga oshirilgan yutilish va foto'o'tkazuvchanlik - aralashmali deb ataladi. Tabiiyki ta'qiqlangan zonada joylashgan sathlar ionlashish energiyasi, taqiqlangan zona kengligi ΔE dan kichik.



III.3- rasm . Mn, Ni, Co va Fe kirishmali germaniy foto'o'tkazuvchanligining foton energiyasi $h\nu$ dan bog'liqligi.

Shuning uchun ham aralashmali yutilish va fotoo'tkazuvchanlik-ning uzun to'lqin chegarasi, xususiy yutilishi va fioeo'tkazuvchanlikka nisbatan spektrning uzun to'lqin tomoniga sijiganroq bo'ladi.

II. 3-rasmda turli xil kirishmali germaniy fotoo'tkazuvchanligining spektral bog'lanishi keltirilgan.

Aralashmali fotoo'tkazuvchanlik sohasida Lyuks-amper xarakteristik yorug'likning kichik intensivliklaridagina bo'ladi va yorug'likning katta intensivliklarida to'ynish holatiga etadi.

IV -- bob. Yarimo'tkazgichlarda nurlanish

fV.I. Yarimo'tkazgichlar lyuminessensiyasi

Uyg'ongan holatda joylashgan yarimo'tkazgichlarda elektromagnit nurlanish chiqarishi kuzatilishi lyuminessensiya deyiladi.

Moddaning bunday holatini turli xil usullar bilan hosil qilish mumkin. Fotolyuminessensiyada nurlanish yutilgan yorug'lik energiyasi hisobiga bo'ladi. Namunani elektronlar bilan bombardirovka qilgandagi nurlanish katodolyuminessensiya deyiladi. Lyuminessensiya moddani rentgen yoki γ -nurlanish , protonlar , $L\angle\beta$ - zarrachalar bilan uyg'ontirilganda ham kuzatiladi, bu radiolyuminessensiya deyiladi. Uyg'ontirish elektr maydon ta'sirida bajarilsa elektrolyuminessensiya, moddaga mexanik ta'sir etish orqali bo'lsa tribolyuminessensiya , hamda ximik va biologik jarayonlarda xemi- va bio- lyuminessensiya kuzatiladi.

S.I Vavilov tomonidan berilgan birinchi ta'rifga binoan , lyuminessensiya bu jism temperaturaviy nurlanishdan xolis qismidan iborat bo'ladiki, faqat, agar bu xolis nurlanish yorug'lik tebaranishlari davridan sezilarli darajada katta bo'lgan chekli davomlilikka ega bo'lsa.

Bu ta'rif lyuminessensiyani, Krixgof qonuniga bo'ysinuvchi muvozanatni issiqlik nurlanishidan ajratadi va unga muvozanatsiz nurlanish qatoriga kirish huquqini beradi . Bundan tashqari, bu

ta'rif lyurninessensiyani bir qancha yorug'likning qaytishi va sochilishi, tormozlanishidagi nurlanish, Vavilov-Cherenkov nurlanishi, induksiyalangan nurlanish va h.k. muvozenatsiz nurlanishlardan ajratadi.

Lyuminessensiyani boshqa turdag'i muvozanatsiz nurlanishlardan ajratadigan belgisi - inersiyasizligi, uning davomlilik vaqt yorug'lik tebranishlari kabi 10^{-15} sek ga teng.


Yarimo'tkazgichlarda uch xil lyuminessensiya kuzatiladi: spontan yoki monomolekulyar, metostabil va rekombinatsion.

Qattiq jismlarning spontan va metostabil nurlanishi, yorug'lik yutilishi yoki nurlanishi kirishmalar markazida amalga oshgan paytda yuzaga keladi.

Yarimo'tkazgichlarning rekombinatsion nurlanishi, elektron va kovaklarning to'g'ridan -to'g'ri yoki markaz orqali rekombinatsiyalashuvida yuzaga keladi. Bu markaz yorug'likning nurlanish markazi sifatida namoyon bo'ladi.

IV.H. Qattiq jismlarning spontan (monomolekulyar) nurlanishi

Qattiq jism lyuminessension spektrlari aralashmalar izolyasiyalangan atomlariga tegishli spektrlardan ikkita asosiy chegara bilan farqlanadi. Birinchidan, qattiq jismlar nurlanishi odatda



IV.1-rasm. Qattia jasmdagi aralashma markazining energetik holati sxemas'. U_0 - asosiy holat, U_ω - uyg'ongan holat.

keng polosalar ko'rinishida kuzatiladi va ikkinchidan, ularning lyumenessension spektrlari yutilish spektrlariga nishbatan uzun to'lqin yo'nalishida siljiganaroq, aniqrog'i bu polosalar maksimumlari siljigan. Qattiq jism optik xususiyatlarining bu asosi, o'zining kelib chiqishiga binoan, nurlanish markazining kristall panjara maydoni bilan o'zaro ta'siriga bog'langan. Markazning atrofinuhit bilan o'zaro tortishuv,


itarishuv, almashinuvi va vandervalscha tortishuvdan yuzaga keladi. Bu o'zaro ta'sir kuchlari natijasida aralashmalar kristal panjarasidagi atomlar holatlari kvazimolekulyar bo'ladi (IV.1-rasm).

IV.III. Yarimo'tkazgichlarning rekombinatsiyali nurlanishi

Ma'lumki xususiy yarimo'tkazgichlarda yoruglik yutilishida, o'tkazuvchanlik zonasida, $\bar{R} = \bar{R}^1$ sharti bajarilganda - to'g'ri optik o'tish, $\bar{R} \neq \bar{R}^1$ sharti bajarilganda esa - noto'g'ri optik o'tish o'rindir. Yutilish mexanizimidan keyin hosii bo'lgan, erkin zaryad tashuvchilar jutti(elektron-kovak) sochiladi, ya'ni relaksatsiya vaqt davomida elektronni, o'tkazuvchanlik zonasi tubiga tushishga, kovakni esa valent zonasi ustki chegarasiga ko'tarilishga undaydi.

Erkin zaryad tashuvchilar bilan kristal panjara orasidagi muvozanatlari holat $10^{-10}-10^{-12}$ sek vaqt mobaynida amalga oshadi.

Elektron va kovakning fotonni chiqarishidan iborat to'g'ri rekombinatsiyasi amalga oshadi, qachonki elektron va kovaklarning to'lqin vektorlari bir xil bo'lsa ($\bar{R} = \bar{R}^1$).



IV.2-rasm. Energetik diagrammalar. a-to'g'ri nurlanish rekombinatsiyasi; b,v,g-lokal markazlar ishg'ol qilgan nurlanish rekombinatsiyasi.

Bunday hol valent va o'tkazuvchanlik zonalari, $R=0$ da tegishli maksimum va minimumlarga ega bo'lganda amalga

oshadi (IV.2-rasm).

Elektron va kovaklar to'g'ri nurlanish rekombinatsiyasi juda toza va o'ta aniq kristal strukturali yarimo'tkazgichlarda kuzatiladi.

V 2-rasmda energetik sathning rekombinatsion markazi o'tkazuvchanlik sathiga yaqin joylashgan holat tasvirlangan, u $\tau_n > \tau_p$ tengsizlik bajarilgan holda amalga oshadi. Bundan oldin lokal markazlar tomonidan o'tkazuvchanlik zonasidagi elektron yutiladi (2-o tish), keyin esa valent zona lokallahsgan elektron va kovaklar nurlanish rekombinatsiyasi ro'y beradi (3-o'tish).


Lyuminessensiyani boshqa (IV.3- rasm v) modelida esa lokallahsgan sath valent zonadan ozgina yuqorida joylashgan bo'lib, unda kovaklarning yutib olish ehtimoliyatি katta ($\tau_n > \tau_p$), shu bilan birga o'tkazuvchanlik zonasи elektronining yutib olish ehtimoliyatи sezilarli ekanligi kuzatiladi. Lyuminessension nurlanish, o'tkazuvchanlik zonasи erkin elektronlarni, shu sathdagi kovaklar yutib oigan holdagi rekombinatsiyada yuz beradi.

Uchinchi modelda (IV.3- rasm g) aralashmalar sathi, valent zona yaqinida joylashgan asosiy sath va o'tkazuvchanlik zonasida ozgina pastda joylashgan uyg'ongan sathdan iborat holati ko'rsatilgan. Bu holda, asosiy sath kovaklarni yutishning katta ehtimoliyatiga, uyg'ongan sath esa elektronlarni yutishning katta ehtimoliyatiga ega. Ikkala yutib olish (2,3 - o'tishlarda) amalga oshigandan keyin, elektron o'zidan nur chiqarib (4-o tish) uyg'ongan sathdan asosiy sathga o'tadi.

V - bob. Yarimo'tkazgichlar. Elektron-kovak r-p o'tish

V.I. Xususiy yarim o'tkazgichlar

Kvant mexanikasida moddalarning elektr o'tkazuvchanligini zonalar nazariyasi orqali tushuntiriladi. Ma'lumki, yakkalangan atomda (siyraklashtirilgan gazlar, metall bug'lari va h.k.) mavjud




V.1-rasm. Yakkalangan atomning energetik sathlari (b) va uning kengayishi (a).

bo'lgan elektron-larning energiyasi turli qiymatga ega. Elektron ega bo'lishi mumkin bo'lgan energiyalar miqdori diskret ravishda o'zgaradi va yadrodan elektronning qanday uzoqlikda joylashishiga bog'liq bo'ladi (V.1-rasm).

Bu energiya qiymatlari rasmida gorizontal chiziqlar ko'rinishida ko'rinishida tasvirlangan. Bu chiziqlar energetik sathlar deb ataladi. Eng quyi energetik sathga to'g'ri kelgan E energiya

— asosiy holat deb, qolganlarini ($E > E_1, n=2,3,\dots$) esa uyg'ongan holat deb ataladi. Elektronning energiyasi $E > 0$ bolsa, u bog'langan deb ataladi va o'z yadrosi ta'siri ostida bo'ladi. Energiya miqdori $E > 0$ bolsa, elektron erkin deb ataladi va bu elektron atomni tashlab ketishi



V.2- rasm. Dielektrik (a) va o'tkazgichlarning (b) energetik satxlari.

mum'kin.

Atomlar bir-biriga yaqinlashtirilsa, atomlardagi energetik sathlar siljiydi. Natijada atomlar orasidagi masofa kristall panjara hosil bo'ladi dan darajaga borganda, energetik sathlar bitta gorizontai chiziqdandan iborat bo'lmasdan, ma'lum bir zonani egallagar bo'ladi. Atomda yadiidan turli uzoqlikda bo'lgan elektronlar energetik sathlarining kengayishi turlicha bo'ladi. Yadroga yaqin bo'lgan elektronlarning energetik sathlari kamroq, undan uzeqroqdagilariniki esa ko'proq kengayadi. Shunday qilib, qattiq jism larda ichki elektronlar o'zlarini xuddi yakkalangan atomlardagi kabi tutsa, valent elektronlar esa «kollektivlashtirilgan» bo'lib, butun qattiq jism atomlariga taalluqli bo'ladi [3].

Tashqi elektronlar V.2.-rasm, a da ko'rsatilgan A , V , S zonalarga mos kelgan istalgan energiyani olishi mum'kin. Shuning uchun bu zona ruxsat etilgan energetik zonalar deb ataladi. Har bir zona bir qancha o'zaro yaqin joylashgan energetik sathlardan iborat bo'lib, qo'shi sathlar bir-biridan taxminan 10--^{22} eV ga farq qiladi.

Ruxsat etilgan zonalar bir-biridan ta'qiqlangan zonalar bilan ajratilgan. Rasmida bu zonalar a. y polosalar ko'rini hi-da tasvirlangan. Bu zonada elektronlar bo'lmaydi.

Ruxsat etilgan zonalar atomlarning valenti elektronlari bilan to'lgan bo'lsa, bunday zonalar valent zonalar (A , V zonalar) deb ataladi. Zona «kollektivlashtirilgan» elektronlar bilan qisman to'lgan bo'lsa yoki elektronlari bo'lmasa, u holda bu zona o'tkazuvchanlik zonasini (S zona) deb yuritiladi.

Moddalarning elektr o'tkazuvchanligini zonalar nazariyasi yordamida quyidagicha tushuntirish mum'kin. Quyida ruxsat etilgan zonalar elektronlar bilan to'lgan, o'tkazuvchanlik zonasida elektronlar bo'lмаган holni ko'rib chiqaylik (V.2- rasm,a). Bu holda elektronlari taqsimlangan modda dielektrikdir. Chunki elektronlar tashqi elektr maydon ta'sirida harakatga kelishi uchun ular o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishlari zarur. Buning uchun ularga katta energiya berish kerak. O'tkazuvchanlik zonasida elektronlarga (V.2- rasm, b) ozgina energiya berilishi (masalan, issiqlik hazakati tutayli)

yoki elektr maydon ta'sirida) bu elektronlarning zonaning yuqori qismiga o'tib olishiga sabab bo'ladi, ya'ni ular erkin elektronlarga aylanadi. Zona ichida elektronlar oson harakatlanadi. Masalan, temperatura 1°K bo'lganda issiqlik harakati energiyasi $kT \approx 10\text{eV}$, bu esa qo'shni sathlar orasidagi energiya farqi ($\sim 10^{-22}\text{ eV}$) dan ancha ko'p. Demik, qattiq jismda o'tkazuvchanlik zonasiga qisman to'lgan bo'lsa, u elektr tokini o'tkaza oladi.

Shunday qilib, metall va dielektrik zona nazariyasiga ko'ra temperatura 0°K da o'tkazuvchanlik zonasida elektronlari bor yoki yo'qligiga qarab farqlanar ekan.

Dielektrik va yarimo'tkazgich esa bir-biridan ta'qilangan zonasining kengligi bilan farqlanadi: dielektriklarda bu zona ancha keng (masalan, NaCl uchun $\Delta E = 6\text{ eV}$), yarim o'tkazgichlarda esa ancha tor, masalan, germaniy uchun $\Delta E = 0,72\text{ eV}$). 0°K ga yaqin temperaturalarda yarim o'tkazgichning xossalari dielektrik kabi bo'ladi. Chunki elektronlarning o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi kuzatilmaydi.

Begona aralashimalarga ega bo'limgan ximiyaviy toza yarimo'tkazgich xususiy yarimo'tkazgich deb, ularning o'tkazuvchanligi esa xususiy o'tkazuvchanlik deb yuritiladi. Xususiy yarim o'tkazgich asosan Mendeleyev davriy sistemasining III, IV va V gruppalarida joylashgan.

Temperatura 0°K dan yuqori bo'lganda ayrim elektronlar V zonaning yuqori sathlaridan S zonaning quyi sathlariga o'tadi va o'tkazuvchanlik zonasini hosil qiladi. Erkin elektronlar harakati bilan yuzaga kelgan xususiy o'tkazuvchanlik elektron o'tkazuvchanlik yoki p-tipdag'i o'tkazuvchanlik deyiladi (lotincha negative manfiy). V zonadan chiqib ketgan elektronning o'rni bo'shab, kovak hosil bo'ladi. Tashqi elektr maydon ta'sirida kovakka qo'shni sathdagi elektron o'tishi kuzatiladi. Natijada, ko'chgan elektron o'rniда kovak paydo bo'ladi. Kovakning bunday siljishi elektron harakati yo'naliishiga teskari bo'lib, xuddi zaryad miqdori elektron zaryadiga teng, lekin ishorasi musbat bo'lgan kvazizarra ko'chgandek bo'ladi. Kovaklarning bunday harakati tufayli yuzaga

kelgan o'tkazuvchanlik kovakli o'tkazuvchanlik yoki r- tipdag'i o'tkazuvchanlik deb ataladi (lotinchada positive - musbat) [2].

Shunday qilib, xususiy yarim o'tkazgichlarda elektr tokini elektronlar va kovaklar harakati vujudga keltiradi. Xususiy yarim o'tkazgichlarda elektronlar va kovaklar konsentratsiyasi bir xil. U xususiy konsentratsiya deb atalib, ni ga teng:

$$n_e^2 = AT^3 \cdot \exp\left(-\frac{\Delta E_{g0}}{kT}\right), \quad (V.1)$$

bu yerda, A --- proporsionallik koefitsienti, T --- abselyut temperatura; ΔE_{g0} 0°K temperaturadagi taqiqlangan zona kengligi; k --- Boltzman doimisi. Uy temperaturasida kremniy uchun $n \approx 10^{10} \text{ cm}^{-3}$ ga, germaniy uchun $n \approx 2 \cdot 10^{11} \text{ cm}^{-3}$ ga teng. Elektronlar va kovaklarning elektr maydon ta'siridagi harakati harakatchanlik deyiladi. Harakatchanlik maydon kuchlanganligi bir birlikka teng bo'lganda elektronlar va kovaklarning harakat tezligini ifodalaydi. Yarim o'tkazgichlarning solishtirma o'tkazuvchanligi

$$\delta = nq\mu_n + pq\mu_p, \quad (V.2)$$

bunda, μ_n va μ_p elektronlar va kovaklarning harakatchanligi. Kremniy va germaniyda elektronlarning harakatchanligi kovaklarnikiga nisbatan 2 - 2,5 marta katta bo'ldi. Shu sababli xususiy yarim o'tkazgichlarning asosan o'tkazuvchanligi elektron xarakterga ega [5].

Xususiy yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi temperatura ortishi bilan ortadi.

Yarim o'tkazgichlarda erkin elektron boshqa zarralar bilan to'qnashganda energiyasining bir qismini yo'qotib bo'sh energiya satida yana kovalent bog'lanishga kirishishi mumkin. Bu jarayon rekombinatsiya deyiladi.

V.II. Aralashmali yarimo'tkazgichlar



Sof yarim o'tkazgichga ozgina miqdorda begona modda kiritilishi, uning elektr o'tkazuvchanligini keskin o'zgartirib yuboradi. Masalan, kremniyiga 0,001% bor atomlarining kiritilishi,

uning o'tkazuvchanligining 1000 barobar ortishiga olib keladi. Buni tushuntirish uchun germaniya qo'shilgan holni ko'raylik (V.3-rasm).



Germaniy atomi to'rt valentli, mishyak atomi besh valentli bo'lganligidan bitta elektron ortiqcha bo'lib, kovalent bog'lanishda qatnashmay erkin elektronga aylanadi [3].

Bu jarayonni zona nazariyasiga ko'ra quyidagicha tushuntirish mumkin. Yarimo'tkazgichga kiritilgan begona modda perjara maydonini bo'ladi. Bu esa ta'qiqlangan zonada mishyak valent elektronlarining O energetik sathi hosil bo'lishiga olib keladi (V.3-rasm, b). Bu sath aralashma sathi deb ataladi. Sath o'tkazuvchanlik zonasidan quyida $\Delta E_D = 0,015$ eV masofada bo'ladi. $\Delta E_D < \Delta E$ bo'lganligidan, odatdagি temperaturalarda issiqlik harakati energiyasi elektronlarni aralashma sathidan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tkazish uchun etarli bo'ladi.

Shunday qilib, yarim o'tkazgichga valentligi bitta katta bo'lgan begona modda qo'shilganda, o'tkazuvchanlik erkin elektronlar hisobiga yuzaga keladi. Yarim o'tkazgichning elektron o'tkazuvchanligini hosil qiluvchi aralashmalar *donorlar* deyiladi.



V.3-rasm. n-tipli
yarimo'tkazgichning hosil
bo'lishi




V.4-rasm p-tipli
yarimo'tkazgichning hosil
bo'lishi

Eindi kremniyning kristall panjarasiga uch valentli bor kiritilgan holni qaraylik (V.4-rasm, a). Bunda bor atomi kremniy atomlari bilan kovalent bog'lanishga kirishishi uchun bitta elektronni etishmaydi. Etishmagan elektron asosiy elementdan olinadi va bu elektron o'mida kovak hosil bo'ladi.

Kovakning bundan keyingi to'lishi yarimo'tkazgichda kovakiarning harakatiga ekvivalent bo'ladi. Bu holda kovak bir atomga «o'rashib» qolmasdan panjara bo'ylab erkin musbat zaryad kabi harakatlanadi.

Zonalar nazariyasiga ko'ra bu quyidagicha tushuntiriladi. Kremniy kristall panjarasiga kiritilgan bor taqiqlangan zonada begona modda A energetik sathining paydo bo'lishiga olib keladi (V.4- rasm, b). Bu sath, valent zonasining yuqori sathidan $\Delta E_a = 0,085B$ masofada bo'ladi. Natijada odatdagi temperaturalarda valent zonadagi elektronlar begona modda energetik sathiga o'tib, bor atomi bilan bog'lanadi hamda panjara bo'ylab ko'chish qobiliyatini yo'qotadi. Tok tashuvchi zarra vazifasini valent zonadagi kovak o'taydi. Shunday qilib, yarim o'tkazgichga valentligi o'zinikiga nisbatan bitta kam bo'lgan modda qo'shilganda kovakli o'tkazuvechanlik sodir bo'ladi. Yarim o'tkazgichning valent zonasidan elektron oluvechi moddalar akseptorlar deb ataladi. Donorii va akseptorli yarim o'tkazgichlar aralashmali yarim o'tkazgichlar deb ataladi. Donorli (p-tipdag'i) yarim o'tkazgichlarda asosiy tok tashuvchilar


berkituvchi qatlam



V.5-rasm p-n o'tishda berkituvchi qatlam hosil bo'lishi va energetik sathning ko'rinishi

elektronlar bo'lsa, akseptorli yarim o'tkazgichlarda (r- tipdag'i) kovaklar bo'ladi.

Bu yarim o'tkazgichlarda asosiy tok tashuvchilardan tashqari asosiy bo'limgan tok tashuvchilar (p-tipdag'i kovaklar, r-tipda elektronlar) ham mayjud bo'ladi.



V.6.-rasm. p-n o'tishdan tok o'tishi

V.III. Elektron-kovak r-p o'tish

Biri elektronli o'tkazuvchanlikka, ikkinchisi kovaklı o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yarim o'tkazgichlar o'zaro tutashgan chegara elektron-kovaklı o'tish yoki r-p o'tish deb ataladi. n-p o'tishda ro'y beradigan jarayon bilan tanishib chiqaylik. Donorli yarim o'tkazgich (chiqish ishi A_p , Fermi sathi E_{Fp}) akseptorli yarim o'tkazgich (chiqish ishi A_r , Fermi sathi --- E_{Fn}) bilan o'zaro kontakt hosil qilsin (V.5-rasm). Shunda elektronlar konsentratsiyasi katta bo'lgan p-yarim o'tkazgichdan konsentratsiyasi kam bo'lgan r-yarim o'tkazgichga diffuziyalanadi. Kovaklar diffuziyasi esa teskari yo'naliishda (n - p) boradi. p-yarim, o'tkazgich chegarasida elektronlar chiqishi tusayli kompensatsiyalanmagan musbat ishorali qo'zg'aimas donor atomlarining hajmiy zaryadi qolsa, n-yarim o'tkazgich chegarasida esa kovaklar hisobiga manfiy ishorali qo'zg'almas ionlashgan akseptorlarning hajmiy zaryadi qoladi (V.5-rasin, a). Bu hajmiy zaryadlar chegara qatlama

qo'sh elektr qavatni hosil qiladi. Bu qavatning elektr maydo-ni $p =$ sohadan $n =$ sohaga yo'nalgan bo'lib, elektronlarning p - n, kovaklarning esa n - p yo'naliishda o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Agar yarim o'tkazgichda donor va akseptorlar konsentratsiyasi bir xil bo'lsa, d_1 va d_2 qatlamlar qalinligi ham bir xil bo'ladi. (V.5-rasm, v). $d_1 + d_2 = d$ qatlam berkituvchi qatlam deb ataladi. n-p o'tishi ma'lum qalinlikka ega bo'lganda har ikkala yarim o'tkazgichlarning Fermi sathlari tenglashadi. n-p o'tish sohasida energetik sathlar

qiyshayadi. Natijada elektronlar va kovaklar uchun potensial to'siqlar vujudga keladi.

Bu potensial to'siqning balandligi kontakt potensiallari ayirmasiga teng:

$$\varphi_k = \varphi_n - \varphi_p = \varphi_i \ln \frac{N_k \cdot N}{n^2} \quad (V.3)$$

bu yerda, φ_n va φ_p — p va n sohalarning potensiallari; N_k va N_e kovaklar va elektronlar konsentratsiyasi; n_i -sof yarim o'tkazgichdagi tok o'tkazishda ishtirek etuvchi elektronlar konsentratsiyasi; φ_i temperaturaga bog'liq potensial deb atalib, u

$$\varphi_i = \frac{kT}{e} \quad (V.4)$$

ga teng.

Berkituvchi qatlarn qalinligi

$$I = \sqrt{\frac{2\epsilon\epsilon_0}{e}} \frac{N_k + N}{N_k \cdot N} \quad (V.5)$$

bilan aniqlanadi. $\epsilon_0 = 8.83 \cdot 10^{-12}$ F/m dielektrik doimiysi; e — yarim o'tkazgichning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi; k — Boltzman doimiysi; e — elektronning zaryadi; T — absolyut temperatura. Yarim o'tkazgichning asociy materiali sifatida germaniy olinganda $T = 300^\circ$ K da $I_i = 0,025$ V bo'ladi. Kremniy uchun $f_k = 0,83$ V va $\epsilon = 0,3$ mkm.

n-p o'tishga ega bo'lgan sistemani tok manbaiga ulab undan elektr toki o'tkazib ko'raylik.

Buning uchun avvalo sistemaning p-sohali uchlariga manbaning musbat qutbi, n-sohaning uchlariga mansiy qutb ulangan hol bilan tanishib chiqaylik (V.6- rasm, b). Bunda tashqi manba hosil qilgan elektr maydoni kontakt potensiallari hosil qilgan maydon bilan bir xil yo'nalishga ega bo'ladi. Shunda p-sohada elektronlarning manbaning musbat qutbi tomon, n- sohada esa kovaklar ning mansiy qutb tomon harakatlanishi kuzatiladi. Natijada berkituvchi qatlarn kengayib n- p o'tishning qarshiligi ortib ketadi va undan oz miqdorda yok o'tadi.

Chunki berkituvchi qatlamda tok faqat asosiy bo`lmanan zaryadlar hisobiga bo`ladi. Bunday o'tish *teskarin n-p* o'tish deb ataladi. Sistemaning n-sohasi uchlariga manbaning musbat qutbi p-sohasi uchlariga manfiy qutb ulanganda tashqi maydon yo`nalishi ichki maydon yo`nalishiga qarama-qarshi bo`ladi. Shu sababli p-sohadagi elektronlar va n-sohadagi kavaklar bir-biriga qarab harakatlanib, n-p o'tishda rekombinatsiyalanadi. Natijada berkituvchi qatlamning qalinligi kamayib, uning qarshiligi kamayadi. Bu yo`nalishda sistemadan tok kichik qarshilikka uchrab o'tganligidan bu o'tish *to'g'ri n-p* o'tish deb ataladi (V.6- rasm).

Xulosa qilib aytganda, n-p o'tish tokni bir tomonlama o'tkazish xususiyatiga ega ekan.

To'g'ri n-p o'tishda berkituvchi qatlam qalinligi

$$P = \sqrt{\frac{2\epsilon\epsilon_0(\varphi_k - U)}{2} \frac{N^k + N_0}{N_k \cdot N_0}} \quad (\text{V.6})$$

kamayadi. Bu paytda o'tayotgan tokning kuchlanishga bog'liqligi eksponensial xarakterga ega bo`ladi:

$$I = I_u \left(\exp \frac{U}{\varphi_k} - 1 \right) \quad (\text{V.7})$$

Bu yerda, I_u - issiqlik toki deb atalib, u miqdor jihatdan teskari kuchlanish qo'yilganda hosil bo`ladigan tokka teng. n-p o'tish zaryadlarni toplash xususiyatiga ega bo`lganligidan ma'lum SIRIMGZ ega bo`ladi. Bu sig'im ikki qismdan iborat: to'siq sig'imi S_t va diffuziya sig'imi S_d .

$$\text{To'siq sig'imi:} \quad C_r = C_0 \left(1 + \frac{U}{\varphi_k} \right)^t \quad (\text{V.8})$$

Bu yerda, $C_0 = S \sqrt{\epsilon\epsilon_0 \frac{N_k}{2\varphi_k}}$ ga teng bo`lib, $U = 0$ bo`lgandagi

to'siqning boshlang'ich sig'imi; S - o'tish qismining yuzi. Ideal n-p o'tish uchun $t=1/2$ ga teng deb olinib, real holda $1/2$ va $1/3$ oralig'ida bo`ladi. Diffuziya sig'imi

$$C_{\text{af}} = \frac{\ell I_{\text{us}}}{kt} \mathcal{P} \left[1 - \exp \left(- \frac{t_{\text{us}}}{\tau p} \right) \right] \quad (\text{V } 9)$$

ga teng bo'lib, muvozanatda bo'limgan zaryadlarning to'planishi bilan xarakterlanadi: t_{us} — muvozanatda bo'limgan zaryadlarning yashash vaqt; t_{im} — zaryad tashuvchi zarralarning injektsiya vaqt; I_{us} — tek kuchi.

Umumiy n - p o'tishning sig'imi S_g va S_{af} larning yig'indisidan iborat.

N - p o'tishdan tashqari, elektron-elektron (p^- va p^+ - p o'tishlar) yoki kovak-kovak (n^- - i va n^+ - n o'tishlar ham mavjud. Bunda n^- o'tish n - sohadagi akseptor ionlari va xususiy yarim o'tkazgich kovaklari hisobiga hosil bo'ladi.

V.IV. Metall p-yarim o'tish

Bu o'tish metall bilan yarimi o'tkazgich o'zaro kontakt yuzalarida hosil bo'ladi. Agar yarim o'tkazgichdagi elektronning chiqish ishi metalldagiga nisbatan kichik bo'lsa, elektronlar yarim o'tkazgichdan metallga o'tadi. Natijada yarim o'tkazgichning kontaktlashgan yuzida asosiy zaryad tashuvchilar kamayib, musbat ishorada zarya'dlanadi. Metall esa mansiy ishorada zarya'dlanadi. Bu jarayon metall va yarim o'tkazgich Fermi sathiari tenglashganiga qadar davom etadi. Kontaktlashish yuzida qo'sh elektr qavat vujudga keladi. Hosil bo'lgan potensial to'sig'i Shotki to'sig'i deb ataladi.


Agar yarim o'tkazgichdagi elektronning chiqish ishi metalldagiga nisbatan katta bo'lsa, chegara yaqinida ham zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi katta bo'lgan qatlam hosil bo'ladi. Bu qatlarning o'tkazuvchanligi yuqori bo'lib, omik o'tish deb ataladi. Ulardan yarim o'tkazgichlardan uchlari chiqarishda foydalaniлади.

VI – bob. Yarimo'tkazgichli diodlar

V.I. Yarimo'tkazgichli diod turlari

Bu asbobda bitta n-p o'tish mavjud bo'lib, uning n va p sohalaridan ulanish uchi chiqarilgan bo'ladi. Yarimo'tkazgichi

diodning tuzilishi va volt-amper xarakteristikasi VI.1-rasmida keltirilgan [3].



VI.1-rasm. Yarim o'tkazgichli diodning tuzilishi (a) va uning volt-amper xarakteristikasi (b).

n-p o'tish hosil qiluvchi sohalarning bïrida, asosiy tok tashuvchi zarrachalarning konsentratsiyasi ko'p bo'lib, u *emitter* deb ataladi. Ikkinchisi esa *baza* deb ataladi. Volt-amper xarakteristikasining to'g'ri n-p o'tish qismidagi tok (V.7) formula yordamida ifodalanadi. Xarakteristikaning to'g'ri n-p o'tishiga to'g'ri kelgan qismidan, diodning differentials qarshiligi hisoblanadi:

$$R_d = \frac{\Delta U}{\Delta I} \quad (\text{VI.1})$$

Volt-amper xarakteristikasidan ko'rinish turibdiki, yarim o'tkazgichli diod ham nochiziqli elementlar qatoriga kiradi. Diodlardan signallarni to'g'rilash, detektorlash, modulyatsiyalash ishlarida foydalaniлади.

To'g'rilagich diodlar past chastotali ($G_0 < 50$ kGs) o'zgaruvchan toklarni to'g'rilashda ishlatiladi. Tayyorlanish texnologiyasiga ko'ra diodlar yassi va nuqtaviy bo'lishi mumkin. Yassi diodlarda n-p o'tishning yuzini belgilovchi o'lchamlar, uning qalinligiga nisbatan katta bo'ladi. Nuqtaviy diodlarda esa aksincha bo'ladi.

To'g'rilaqich diodlar sifatida asosan yassi diodlar ishlataladi. To'g'ri yo'nalishda o'tuvchi to'g'rilaqan tek kuchi 1600 A gacha, teskari yo'nalishda 1000 V gacha kuchlanishga no'ljallangan diodlar ishlab chiqariladi Albatta, bunday katta tokni o'tkazuvchi diodlar ishjarayonida qiziydi. Shu sababli diodlarga issiqlikni sochuvechi radiatorlar kiydirilib montaj qilinadi. Kremniyli to'g'rilaqich diodlarning ishechi temperaturasi 125°С gacha bo'lishi mumkin.


Yuqori chastotali diodlar signalarni detektorlash, o'zgartirish, modulyatsiyalash kabi ishlarda qo'llaniladi. Bu ishkarni bajarishda diodning xususiy SIG'IM muhim ahamiyatga ega. Bunday diodlarda SIG'IM kichik bo'lishi talab qilinganligi tufayli asosan nuqtaviy diodlar ishlataladi. Bunday diodlarning sig'imi pikofaradaning o'ndan bir ulushlarida bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda ishechi chastotasi 1000 MGs gacha bo'lgan yuqori chas-totali diodlar mavjud. Yuqori chastotali diodlar kichik teskari kuchlanishcha va kichik to'g'ri toklar rejimida ishlaydi. Masalan, germaniyti nuqtaviy diodning ishechi teskari kuchlanishi 350 V gacha, to'g'ri yo'nalishdagi tok kuchi 100 mA ($V_f = 1,28$) gacha bo'lishi mumkin.

Impuls rejimida ishlaydigan diodlar radio sxemalarda kalit vazifasini bajaradi. Bu rejimda asosan nuqtaviy va kichik yassi diodlar ishlataladi. Diod ikki xil holatda bo'ladi: «echiq» yoki «yopiq». Ochiq holda diod qarshiligi kam, yopiq holda katta bo'iadi. Impuls sxemalarida diodning bir holatdan ikkinchi holatiga qanchalik tez o'tishi ahamiyatlidir.

VI.II. Yarimo'tkazgichli kuchlanish stabilizatori

Yarim o'tkazgichli kuchlanish stabilizatori (stabilitron, stabistor). Bu yarim o'tkazgichli diod zanjirga teskari n-p o'tish hosil bo'ladigan qilib uylanadi. Ish rejimi, diod xarakteristikasining teskari yo'nalishda yorib (teshib) o'tuvchi tok o'tadigan qismiga to'g'ri keladi. Yorib o'tish deyilganda, diodga teskari r-p o'tishga to'g'ri keladigan kuchlanish qo'yilib, uning ma'lumi qiymatida teskari tokning keskin ortib ketishi tushuniladi. Diiodda ko'chki, tunnel va

İssiqlik ta'sirida yorib o'tishlar kuzatilishi mumkin.



Vl.1-rasm. Stabilitronni tok manbaiga ularash (a) va uning chiqish xarakteristikasi (b)

Yarimo'tkazgichda aralashma miqdori juda kichik bo'lganda, katta teskari kuchlanish ta'sirida bo'lgan elektronlar va kovaklar nevral yariun o'tkazgich atomining yana bitta kovalent bog'langan elektronini urib chiqarishi mumkin. Natijada zaryad tashuvchi zarrachalarining yangi jufti hosil bo'ladi. Etarli miqdordagi teskari kuchlanishda bunday urib chiqarish ko'chkisimon ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Tunnel orqali yorib o'tishda kuchli elektr maydon ta'sirida ($2 \cdot 10^5$ V/sm, germaniy uchun va $4 \cdot 10^3$ V/sm) elektr sohalarining chegarasi silijydi va chegara yaqinida kichik potensial to'siqqa ega bo'lgan tuyruk ochiladi. Qarshiligi kichik yarim o'tkazgichlarda tunnel orqali tok o'tish, ko'chkisimon o'tish kuzatiladigan kuchlanishdan kichikroq kuchlanishlarda ro'y beradi. Qarshiligi katta bo'lgan yarim o'tkazgichlarda esa, aksincha.

İssiqlik ta'sirida yorib o'tishda n-p o'tish sohasi qizib, unda asosiy bo'linagan tok tashuvchilarning ko'payishi va natijada teskari yo'nalishdag'i tokning ortib ketishi kuzatiladi.


Ko'chkisimon va tunnel orqali yorib o'tishlar diodni ishdan chiqarmaydi. Shu sababli bu o'tishlar elektron qurilimalarda qo'llaniladi. Issiqlik ta'sirida yorib o'tish esa, n-p o'tishni buzadi.

Stabilitronlar ko'chkisimon yorib o'tish hodisasiga asoslanib ishlaysdi.

Uning ishlash prinsipi quyidagicha (Vl.1-rasm, b): sta-

bilitronga qo'yilgan teskari yo'nalishdagi kuchlanish orttirib borilsa, dioddan o'tadigan teskari tok miqdori juda kichik bo'lganligidan, sxemaning chiqishidagi kuchlanish ham ertib beradi. Kuchlanish miqdori ko'chkisimon yorib o'tish miqdoriga yetganda, dioddan o'tayotgan tok keskin ortib ketadi (VI.1-rasm, b). Chiqish kuchlanishi esa bir oz kamayadi. Kirish kuchlanishining bundan keyingi ortishi stabilitron orqali o'tuvchi tokni oshirishga sarflanadi va chiqish kuchlanishi deyarli o'zgarmaydi (VI.1-rasm, b). Bu oraliqqa to'g'ri kelgan chiqish kuchlanishi, stabilitronning *stabilizatsiyalash kuchlanishi* deb yuritiladi.

Asosiy parametrlariga stabilizatsiyalash kuchlanishi U_{st} , stabillash toki I_{st} , stabilizatsiyalash tokiga to'g'ri kelgan differensial qarshiligi R_{st} kiradi. Uning tashqi ko'rinishi va sxematik belgilanishi VI.2- rasmida keltirilgan.




VI.2-rasm. Yarimo'tkazgichli stabilitron, tunnel va aylantirilgan diodlarning shartli belgilari: a – bir tomonlama o'tkazadigan stabilitron; b – ikki tomonlama o'tkazadigan stabilitron; v – tunnel; g – aylantirilgan diodlar.

VI.III.Tunnelli diodlar


Tunnel diodlar asosan ko'p aralashmali diodlardan yasaladi. Uning ishlash prinsipi tunnel orqali yorib o'tish hodisasiiga asoslangan. Tunnelli diodning volt-amper xarakteristikasi VI.3-rasmida keltirilgan. Xarakteristikadan ko'riniib turibdiki, uning to'g'ri o'tishga mos kelgan qismida differensial qarshiligi manfiy qiymatga ega bo'lган soha mavjud. Mansiy qarshilik deyilganda kuchlanish

ortishi bilan tok kuchi kamayishi tushuniladi. Bu xususiyatga ko'ra tunnelli dioddan kuchaytirgich, generator va turli xil impuis rejimida ishlaydigan qurilmalarda foydalaniлади. Diod teskari yo'nalishdagi tokni yaxshi o'tkazadi [3].

Asosiy parametrlari: yuqori cho'qqiga to'g'ri kelgan tok kuchi (grafikda A nuqta); pastki chuqurlikka to'g'ri kelgan tok kuchi (grafikda B nuqta); yuqori cho'qqi va pastki chuqurlikka to'g'ri kelgan kuchlanishlar U_A va U_B .



VI.3-rasm. Tunnel diodining volt-amper xarakteristikasi



VI.4-rasm. Aylantirilgan diodning volt-amper xarakteristikasi

Aylantirilgan diodlar ham tunnelli diodlarga o'xshash bo'lib, volt-amper xarakteristikasida, do'nglik va chuqurlik fazasidagi farq kichik bo'ladi (VI.5-rasm). Diodda aralashma kritik konsentratsiyada olinib, teskari yo'nalishdagi o'tkazuvchanlik, to'g'ri yo'nalishdagi o'tkazuvchanlikdan katta bo'ladi. Bunday diodlarning teskari yo'nalishdagi volt-amper xarakteristikasi to'g'rilovchi diodlarnikiga o'xshash bo'ladi.

VI.IV. Varikaplar

Varikap - bu yarmino'tkazgichli diod bo'lib, sig' im teskari yo'nalishdagi kuchlanishga bog'liq bo'ladi. Teskari kuchlanish ortishi bilan r-p o'tish sig' imining kamayishi quyidagi noda

$$C_{\text{v}} = C_0 \left[\frac{\varphi}{\varphi_0 + U} \right]^{1/n} \quad (\text{VI.3})$$

asosida boradi. Bunda f —kontakt potensiallar ayirmasi; S_i —kuchlanish qiymatga yetgandagi sig'imi; S_0 — diodga kuchlanish berilmagan holdagi sig'imi; p — varikapning turiga bog'liq bo'lgan koefitsient (p q 2...3).

Varikaplar galliy arseniddan tayyorlanib, unda asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi kam bo'ladi. Teskari yo'nalishdagi differensial qarshiligi katta bo'ladi.


Varikaplar kontur chastotasini ishlarda generator va geterodinlar chastotalarini o'zgartirishda ishlataladi.

Signal chastotasini ko'paytiruvchi varikaplar varaktor deb ataladi. Asosiy parametrleri: varikapning aslligi (sig'imi ni o'zgartirish koefitsienti, umumi sig'imi Sv).

VII – bob. Tranzistorlar

VII.I. Bipolyar tranzistorlar

Tranzistor uchta sohadan iborat yarim o'tkazgichli asbob. Uning tuzilishi VII.I- rasm a)da keltirilgan. O'rta qismi baza deb - atalib, aralashma konsentratsiyasi chetki qismlariga nisbatan kam va yupqa bo'ladi. Baza qalnligi L_B , elektron yoki kovakning rekombinatsiyalashgunga qadar erkin yugurib o'tgan masofasi L_D ga nisbatan kichik ($L_B < L_D$) bolsa, yupqa baza deb yuritiladi. L_d shuningdek, diffuziya siljish uzunligi deb ham ataladi. Chetki qismlaridan biri emitter, ikkinchisi kollektor deb ataladi. Tranzistorning tuzilishi triodga qiyoslansa, emitter ... katodga, baza - to'rga, kollektor- anodga o'xshatiladi.




VI.5-rasm. Valentliklarning shartli belgilari: a—bir katodli varikap, b—ikki katodli, v—uch katodli varikapli matritsa.

avtomatik tarzda sozlash

ishlarida generator va geterodinlar chastotalarini o'zgartirishda ishlataladi.

Emitter degan nom elektronlar bazaga purkaladi, in'eksiya, ya'ni injeksiyalanadi degan ma'noni anglatadi. Mana shu xususiyati bilan elektron lampadagi katoddan termoelektron emissiya hodisasi tufayli elektronlar hosil bo'lishi orasidagi farq tushuntiriladi. Tranzistor va vakuumli triod ishlash prinsipi jihatidan ham farq qiladi. Triodda to'rga kuchlanish berilmasa ham, anod toki hosil bo'ladi. Tranzistorda esa baza toki bo'lmasa, kollektor toki ham bo'lmaydi. VII.1- rasmida ko'rsatilgan tranzistor, diskret tranzistor deb ataladi. Bu tranzistorda n-p o'tishlar yarim o'tkazgichli plastinaning qarama-qarshi tomonlarida joylashgan. O'tishlari bir tomonga joylashgan tranzistorlar ham mavjud. Bunday tranzistorlar *integral tranzitorlar* deb ataladi. Emitter sohasida aralashma miqdori ko'proq bo'ladi. Kollektor zaryad tashuvchilarni ekstraksiyalash (sug'urib olish) vazifasini bajaradi.



VII.1-rasm. Tranzistorning tuzilishi (a) va uning qarama-qarshi ulangan diodlari sifatida tasvirlanishi (b).


Tranzistorning bazasi p yoki n o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra chetki qismlari n yoki p o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi. Demak, tranzistor n-p-n yoki p-n-p strukturali bo'ladi. Tranzistorda ikkita r-p o'tish mavjud. Buni hisobga olgan holda tranzistorni ketma-ket ulangan ikkita bog'langan diod sifatida qarash mumkin (VII.1-rasm, b). Uning chetki uchlariga (evitter — kollektorga) kuchlanish ulanganda r-p o'tishlarning biri to'g'ri o'tish

bo'lsa, ikkinchisida teskari bo'lganligidan har ikkala yo'nalishda ham sistemadan tok o'tmaydi. Tranzistorni ikkita tok manbaiga

VII.2-rasmida ko'rsatilganidek ulaylik. K kalit ochiq bo'lganda emitter zanjirida tok bo'lmaydi. Kollektor zanjirida esa oz miqdorda teskari n-p o'tish toki (I_{KBT} , t — teskari demak) bo'ladi.

K — kalit ulanganda emitter zanjirida tok hosil bo'ladi. Chunki E_e manba kuchla-nishi emitter — baza yo'nalishida to'g'ri n-p o'tish hosil qiladi. Bunda ko'pchilik kovaklar emitterdan bazaga o'tganda $L_B > L_d$ bo'lganligidan kollektor o'tishiga etib boradi. Natijada

"Kambag'al" sohalar



VII.2-rasm. Tranzistorni UB sxemada ulash

tranzistor deb ataladi. Xarakteristikalari keltirilgan xarakteristika K kalit ochiq bo'lgan holni ifodalaydi. Xarakteristikadan ko'rindiki, kollektor — bazaga qo'yilgan manfiy kuchlanish qiymati ortishi bilan tokning sezilarli darajada ortishi kuzatilmaydi. Buni tushuntirish uchun tranzistorning potensial diagrammasi bilan tanishib chiqaylik (VII.4-rasm). Unda tranzistorning zaryadlarga kambag'allashgan sohalari ham ko'rsatilgan. Emitter va kollektor sohalarida zaryadlangan zarrachalar konsentratsiyasi katta bo'lganligidan kambag'al soha asosan baza qatlamaida bo'ladi. VII.4-rasmdan ko'rindiki, ikki soha orasidagi masofa, ya'ni bazaning effektiv qalinligi baza qalinligidan kichik bo'ladi. Kollektordagi manfiy kuchlanishning ortishi kollektor o'tishidagi kambag'al qatlamning kengayishiga olib keladi.

kollektor toki ortadi. Umuman olganda ular taqsimlanishi natijasida unda asosiy bo'limgan zaryadlarni emitterdan kollektorga o'tishiga yordam beruvchi elektr maydon bo'lsa, bunday tranzistor *dreyfli tranzistor* deyiladi. Agar bazada xususiy maydon bo'lmasa, asosiy bo'limgan zaryad tashuvchilar baza orqali asosan diffuziya hodisasi tufayli o'tsa, bunday tranzistor *dreyfsiz*

VII.3-rasmda, tranzistorning chiqish


Unda $I_e = 0$ ga mos kelgan xarakteristikada ko'rindiki, kollektor — bazaga qo'yilgan manfiy kuchlanish qiymati ortishi bilan tokning sezilarli darajada ortishi kuzatilmaydi. Buni tushuntirish uchun tranzistorning potensial

diagrammasi bilan tanishib chiqaylik (VII.4-rasm). Unda tranzistorning zaryadlarga kambag'allashgan sohalari ham ko'rsatilgan. Emitter va kollektor sohalarida zaryadlangan

zarrachalar konsentratsiyasi katta bo'lganligidan kambag'al soha asosan baza qatlamaida bo'ladi. VII.4-rasmdan ko'rindiki, ikki soha

orasidagi masofa, ya'ni bazaning effektiv qalinligi baza qalinligidan kichik bo'ladi. Kollektordagi manfiy kuchlanishning ortishi kollektor o'tishidagi kambag'al qatlamning kengayishiga olib keladi.

Natijada bazaning effektiv qaliligi kamayadi. Bu hodisa baza qaliliginin *modulyatsiyasi* deb ataladi.



VII.3-rasm. UB (a) va UE (b) sxemada ulagan tranzistorning chiqish xarakteristikalarini.


Emitter toki faqat kovaklar harakati tufayli hosil bo'lmasdan, elektronlar harakati bilan ham bog'liq. Kollektorda esa tok faqat kovaklar harakati tufayli vujudga keladi. Shu sababli emitterning samaradorligi

$$\gamma = \frac{I_m}{I_{ep} + I_m} \quad (VII.1)$$

orgali aniqlanadi. Bu yerda, I_{er} — kovaklar harakati tufayli hosil bo'lgan emitter toki; I_{ep} — elektronlar harakati tufayli hosil bo'lgan emitter toki.

Emitterdan bazaga injeksiyalangan (purkalgan) bir qism kovaklar bazadagi asosiy zaryad tashuvchilar — elektronlar bilan rekombinatsiyalanadi [4].

Baza orqali o'tib boruvchi kovaklar, baza uchun asosiy bo'lmagan tok tashuvchi zarrachalar hisoblanadi. Quyidagi



VII.4-rasm. Tranzistordagagi "Kambag'al" zona va uning potensial diagrammasi


$$\beta = \frac{I_k - I_{KBT}}{I_{\eta p}} \quad (\text{VII.2})$$

nisbat bilan aniqlanadigan kattalik baza orqali o'tuvchi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarni o'tkazish koeffitsienti deb yuritiladi.

Emitterning samaradorligi va o'tkazish koeffitsienti tranzistor katta signal bilan ishlagandagi tok uzatish koeffitsienti /g_{21B}/ni belgilaydi. Bu koeffitsient

$$h_{21B} = \frac{I_k - I_{KBT}}{I_s} = -\gamma \cdot \beta \quad (\text{VII.3})$$

da teng. Kollektorga kirib keluvechi tok yo'nalishi musbat yo'nalish deb qabul qilinganligidan (VII.3) da «minus» ishora qo'yiladi. /g_{21B}/ koeffitsienti tranzistorning muhim parametrlaridan biri hisoblanib, sifatli tayyorlangan tranzistorlarda birga yaqin bo'ladi. VII.2-rasmida ko'rsatilganidek tranzistorni zanjirga ulash umumiy bazali (U_b) sxema deb yuritiladi. Bu sxema bo'yicha E_{EB} va E_{CB} manbalarining ulanish usuliga ko'ra tranzistorlar turli rejimda ishlashi mumkin.



VII.5-rasm. Tranzistorni zanjirga UE sxemada ulash.

Shulardan tranzistor aktiv rejimda ishlaganda undan o'tuvchi tokni boshqarish samarali bo'ladi.

Umuman olganda tranzistorlar zanjirga uch xil usulda ulanishi mumkin. VII.4- rasmida E_1 va E_2 batareyalar hosil qiladigan tok zanjirida emitter har ikkalasi uchun umumiyidir. Shu sababli bunday ularash umumiylar emitterli (UE) sxema deb yuritiladi. Xuddi shunday umumiylar bazali (UB) va umumiylar kollektorli (UK) sxemalarni ham tuzish mumkin. Shu sababli tranzistorlarga signal ta'sir ettirilganda uning parametrlari qanday o'zgarishiga alohida ahamiyat beriladi.


Tranzistorga kichik signal ta'sir ettirilganda, uni chiziqli aktiv nosimmetrik to'rt qutbli deb qarash mumkin (VII.5-rasm). Kichik signal ta'sir ettirish deyilganda signal amplitudasi 1,5 barobar orttirilganda tranzistor parametrlari 10% dan ko'pga ortmaydigan hol ko'zda tutiladi. Shunda to'rt qutbli parametrlarni hisoblash usulini qo'llash mumkin. Odatda, tranzistorlarning N parametrlarini UB va UE sxemalari uchun hisoblanadi.

Tranzistordan o'tuvchi toklarning kuchlanishga bog'liqligi statik volt-amper xarakteristikalarini (VAX) orqali ifodalanadi. Ular kirish va chiqish xarakteristikalariga ajratiladi.

Kirish xarakteristikasi deyilganda chiqish zanjirining kuchlanishi o'zgarmas saqlangan holda, kirish zanjiridagi tokning kirish kuchlanishiga bog'liqlik grafigi tushuniladi. Masalan, UE sxemasida $U_{ke}=sopst$, $I_b = f(i_{be})$. Chiqish xarakteristikasi deyilganda kirish zanjiridagi tok o'zgarmas bo'lganda, chiqish tokining chiqish kuchlanishiga bog'liqligi tushuniladi. Masalan, UE sxemada $I_c = \text{const}$, $I_r = F(U_{kb})$.

UB va UE sxemaning kirish VAXi VII.6- rasmida keltirilgan.

Xarakteristikadan ko'rinib turibdiki, u diodnikiga o'xshash ko'rinishga ega.



VII.6- rasm. Tranzistorlarning kirish xarakteristikasi; a -- UB va b --UE sxemalarida.

VII.3-rasmda UB va UE sxemalar bo'yicha ulangan tranzistorning chiqish xarakteristikalari keltirilgan. UB sxemada, UE nikiga qaraganda kollektor toki kollektor kuchlanishiga kuchsiz bog'langan. UE sxemada kollektor tokining keskin ortishi UB nikiga nisbatan kichik kollektor kuchlanishida ro'y beradi.


Tranzistordan kuchaytirgich sifatida foydalanilganda, umumiy emitterli sxemada signalni kuchlanish bo'yicha 10—200 marta kuchaytirish mumkin. Shu sababli UE sxema boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Lekin UE sxemada kirish qarshiligi 500—1000 Om, chiqish qarshiligi 2—20 kOm atrofida bo'ladi. Kirish qarshiligi kichik bo'lganligidan boshqa qurilmalarga moslash davrida qiyinchiliklar tug'iladi. UK sxemada kuchlanish bo'yicha kuchaytirish bir atrofida, tok bo'yicha kuchaytirish UE niki bilan bir xil. UB sxemada tok bo'yicha kuchaytirish bir atrofida, kuchlanish bo'yicha kuchaytirish UE niki kabi bo'ladi. Kirish qarshiligi bu sxemada juda kichik, 10—200 Om atrofida bo'lganligidan ko'pincha elektr signallarini generatsiyalash va shunga o'xshash qurilmalarda ishlataladi.

VII.11. Integral tranzistorlar

Integral tranzistorlar kremniy monokrietalidan tayyorlangan plastina asosida yasaladi. Plastinada biror texnologik usul bilan baza, emitter va kollektor sohalarida turli konsentratsiyali aralashimalar hosil qilinadi.

So'ngra bu sohalardan plastina ustki qismiga uchlar chiqariladi. Bu ikkala sababga ko'ra emitter, baza va kollektor sohalarining hajmiy qarshiligi katta bo'ladi. Integral tranzistorning bazasi juda yupqa bo'lib, emitter baza potensial sathi baland bo'ladi. Integral sxemadagi barcha elementlar bitta asosda yasalganligidan ular orasida parazit bog'lanishlar bo'ladi [3].

Shu sababli ular bir-biridan izolyatsiyalanadi. Integral sxemalarni izolyatsiyalashning ikki usuli mavjud; dielektrik orqali va teskari siljishga ega bo'lgan n-p o'tish orqali. Integral sxemalarda asosan, kollektor zanjiri ta'minlovchi manbaning mansiy qutbiga ulab qo'yiladi.



VII.7 rasm. Integral tranzistorlar: a-gorizontalliy strukturali komplementar tranzistorlar; b- vertikal strukturali komplementar tranzistorlar; v-ko'p emitterli tranzistor; g-ko'p kollektorli tranzistor; d-Shotki to'sig'iga ega bo'lgan tranzistor.

Tranzistori n-p-n tipli IS larni tayyorlash texnologiyasi qiyinroq bo'lganligidan, ularni p-n-p tipli tranzistorlar bilan qo'shib tayyorlanadi. Bunday justlik *komplementar* deb ataladi. Komplementar usulda tayyorlanadigan n-p-n tranzistorlari gorizontal va vertikal strukturali bo'ladi. Gorizontal strukturali tranzistorda emitter, baza va kollektor bitta gorizontal tekislikda joylashadi (VII.7-rasm, a). Bunday strukturali tranzistorda tok tashuvchi zarrachalar kristall yuzasidan parallel ravishda ko'chadi. Vertikal strukturali r-p-r tranzistorlarda, p-n-p tranzistorlari kabi emitter, baza va kollektorlar vertikal holatda joylashtiriladi (VII.7-rasm, b)).

Hozirgi zamон IS larida, diskret sxemalarda qo'llanilmaydigan maxsus p-n-p tipli tranzistorlar ishlataladi. Bularga ko'p emitterli va ko'p kollektorli tranzistorlar, Shotki to'sig'iga ega bo'lgan tranzistor va superbeta-tranzistorlarini keltirish mumkin.


Ko'p emitterli integral tranzistorining tuzilishi va shartli belgisi VII.9-rasm, v da keltirilgan. Bu tranzistor asosan raqamli IS da keng qo'llaniladi, u ikki holatda; «ochiq» va «yopiq» holatda ishlashga mo'ljallangan. Bunda baza va kollektor hamma emitter uchun umumiy hisoblanadi. Shu sababli baza va kollektorga qo'yilgan ma'lum kuchlanishda, emitterlar kuchlanishiga qarab ba'zilari ochiq bo'lsa, ba'zilari yopiq bo'ladi.

Ko'p kollektorli integral tranzistorining tuzilishi va shartli belgisi VII.9- rasim, g da keltirilgan. Uning tuzilishi ko'p emitterli tranzistorlardan uncha farq qilmaydi. Farqi shundaki, u inversiya rejimida ishlaydi. Shu boisdan p⁺ qatlam baza sohasiga yaqinroq qilib yasaladi. Bunda p⁺ qatlam elektronlar injektori vazifasini o'taydi.

Shotki to'sig'iga ega bo'lgan tranzistorning tuzilishi va shartli belgisi (VII.7- rasm, d da) keltirilgan. Tranzistor bazasidan alyuminiyli kontakt chiqarilgan bo'lib, u kollektor tomon cho'zilgan. Bu kontakt kollektorning p-sohasi bilan Shotki diodini hosil qiladi. Natijada tranzistorning to'yinishiga yo'l qo'yilmaydi. Bazadagi kuchlanish kollektordagi kuchlanishdan ortiq bo'lganda Shotki diodi ochilib, baza va kollektorni qisqa tutashtiradi. Shotki

diodining borligi tranzistorning ishlash tezligini orttiradi.

Superbeta-tranzistorda bazaraning tok o'tkazish koeffitsienti 3000—6000 atrofida bo'ladi. Bunday katta o'tkazish koeffitsientiga bazaraning o'ta yupqaligi tufayli erishiladi. Shu sababli elektrodlardagi kuchlanish kamroq qilib olinadi.



VII.8-rasm. Boshqariladigan p-n o'tishli maydon tranzistori.

tranzistorlarda tok asosiy tok tashuvchilar yordamida hosil qilinib, asosiy bo'limgan tok tashuvchi zaryad muhim rol o'ynamaydi. Shu sababli maydonli tranzistor *unipolyar tranzistor* deb ham ataladi.

Bipolyar tranzistorda chiqish toki baza yoki emitterning kirish toki bilan boshqariladi. Unda kirish qarshiligi kichik bo'ladi. Kirish qarshiligi kichik bo'lishi zarur bo'lgan hollarda bipolyar tranzistorni ishlatish mumkin. Lekin ayrim sxemalar kirish qarshiligi katta bo'lishini taqozo qiladi.

Maydonli tranzistorlarda tokni boshqarish elektr maydon vositasida boshqarilganidan o'zgarmas tok va past chastotali

o'zgaruvchan toklar uchun tranzistorning kirish qarshiligi juda katta bo'ladi: 10^8 — 10^{15} Om.

Maydonli tranzistorlarni tayyorlash texnologiyasi bipolyar tranzistorlarga nisbatan soddarоq. Bundan tashqari", maydonli tranzistorlar mikrosxemalarda kichik yuzani egallaydi va kam tok iste'mol qiladi. Shu sababli kichik o'lchamda bir necha mingdan, o'n minggacha tranzistor va rezistorlarni hosil qilish imkonini beradi.

Maydonli tranzistorlar tayyorlanish texnologiyasi va konstruktiv ijrosiga ko'ra, ikki gruppaga bo'linadi: boshqariladigan n-p o'tishli va zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlar

VII.III.1 Boshqariladigan r-p o'tishli maydonli tranzistorlar


(VII.8- rasm). Tranzistor p+ yoki r-o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kristalldan tayyorlanadi. Kristallning qarama-qarshi tomonlaridan ularish uchlari chiqarilib, ulardan biri istok (buloq), ikkinchisi stok (o'pqon) deb ataladi. Istok va stok oralig'iga diffuziya usuli bilan r-soha (p- o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kristallda)/ yoki p-soha (r-o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kristalda) joylashtiriladi. Natijada kristallning shu qismida n-p o'tish vujudga keladi.

Tranzistorning istoki va stoki oralig'iga E_2 batareya shunday ulanadiki, natijada asosiy tok tashuvchilar istokdan stokka tomon harakatlanadi. Tok tashuvchi zaryadlar bunda r-p o'tish orqali emas, balki uning yonidan kanal bo'ylab oqadi. Shu jihatidan ham maydonli tranzistor bipolyar tranzistordan farq qiladi. Ikkinchisi E_1 tok manbaini istok va zatvor oralig'iga teskari r-p o'tish hosil bo'ladigan qilib ulaylik. Natijada n va p-*sohalar* orasida mavjud bo'ladigan berkituvchi qatlam kengayadi. Bunda zatvor sohasida zaryadlar konsentratsiyasi kanalga nisbatan katta bo'lganligidan kambag'al sohaning kengayishi asosan kanal tomonda bo'ladi. Natijada tok o'tkazuvchi kanalning ko'ndalang kesimi kamayadi va shunga muvofiq uning qarshiligi ortadi. Bu esa o'z navbatida kanal orqali o'tuvchi tokning kamayishiga olib keladi. VII.8-rasmida bu kanal shaklining o'zgarishi uzlukli chiziqlar vositasida ko'rsatilgan.

Shunday qilib, zatvor tranzistorda boshqaruvchi elektrod bo'lib xizmat qiladi.

Tranzistor orqali o'tuvchi tok, nolga teng yoki MA'LUM belgilangan qiymatgacha kamayadigan zatvor-istok kuchlanishi *ajratish kuchlanishi* deb ataladi. n-kanalli tranzistorlarda bu kuchlanish musbat bo'lib, odatda 0,2—7 V oralig'ida bo'ladi.

Keyingi yillarda maydonli tranzistorlar ikki zatvorli qilib chiqarilmoqda (VII.8- rasm, b). Ikkinci zatvor ko'pincha birinchi zatvorga ulab qo'yildi va u kanalni pastki tomonidan cheklaydi. Maydon tranzistorining chiqish VAX i VII.9- rasmda keltirilgan. Bu xarakteristikani bipolar tranzistorniki bilan solishtirilsa, ularning o'xshash ekanligini ko'rish mumkin.



VII.9 - rasm. Boshqariladigan r-p o'tishli maydon tranzistorining chiqish xarakteristikasi

Yuqorida aytib o'tilgan tranzistorda berkituvchi qatlamning maksimal kengayishi faqat $U_{zi}=U_{zi_{max}}$ kuchlanishda ro'y bermasdan, balki undan kichikroq kuchlanishlarda ham bo'lishi mumkin. Bu stok va istok oralig'iga berilgan kuchlanishga ham bog'liq bo'lib quyidagi

$$U_{si} = [U_{zi} - U_{zi_{max}}] \quad (\text{VII.4})$$

ga teng.

VII.9- rasmda bu kuchlanish uzlukli (shtrix) chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

Xarakteristikadagi chiziqli sohaga to'g'ri kelgan tok va

kuchlanish orasidagi bog'lanishni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$I_c = \frac{I_{co}}{U_{max}^2} [2(U_m - U_{max})U_{co} - U_{co}^2] \quad (\text{VII.5})$$

Bu yerda, I_{co} — boshlang'ich stok toki.

Xarakteristikaning to'yinish sohasi uchun bu bog'lanishni taxminan

$$I_c = I_{co} \left(1 - \frac{U_{co}}{U_{max}}\right)^2 \quad (\text{VII.6})$$

yordamida yozish mumkin.

Xarakteristikadan foydalaniib tranzistorning quyidagi parametrlarini topish mumkin: chiqish o'tkazuvchanligi

$$\sigma_{221} = \partial I_c / \partial U_{co} / U_{zi} = \text{const} \quad (\text{VII.7})$$

yoki maydon tranzistorining chiqish qarshiligi

$$r_e = 1 / \sigma_{221} \quad (\text{VII.8})$$

Kam quvvatli maydon tranzistorlarida bu kattalik odatda 10--100 kOm atrosida bo'ladi. Xarakteristikaning tikligi

$$S = \frac{\partial I_c}{\partial U_{mz}} / I_{co} = \text{const} \quad (\text{VII.9})$$


bilan aniqlanadi.

VII.III.2. Zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlar


Bu maydonli tranzistorda zatvor asosiy kanaldan dielektrik bilan ajratilgan. Tranzistorda zatvor metalldan qilingan bo'lib, yarim o'tkazgichdan dielektrik bilan ajratilgan. Shu sababli metall, dielektrik va yarim o'tkazgichdan iborat struktura hosil bo'ladi. Tranzistorni esa MDP tranzistori deb yuritiladi. Ko'pgina hollarda dielektrik sisatida oksidlardan foydalilanildi. Shunga ko'ra ba'zan tranzistorni MOP tranzistor ham deb atafadi. Zatvori izolyatsiyalangan maydon tranzistorlari ikki xilda ishlab chiqariladi: ichiga kanal o'rnatilgan tranzistor va induksiyalangan kanallli tranzistor.

Kanal o'rnatilgan tranzistorning tuzilishi VII.10- rasmida kel-

tirilgan. Bu tranzistorda istok va stok oralig'ida diffuziya usuli bilan p-tipli kanal hosil qilinadi. Zatvorga manfiy potensial berilganda kanalda musbat zaryadlar induksiyalanadi va zaryadlarga «kambag'al» zona hosil bo'lib, kanalning solishtirma qarshiligi oshadi (VII.10-rasm, b). Manfiy potensial U_{ziam} ga yetganda istok va stok oralig'idagi tok to'xtaydi. Tranzistorda o'rnatiladigan kanal n-tipli ham bo'lishi mumkin. Bunda istok va stok oralig'idagi tokni kamaytirish uchun zatvor va istok oralig'iga musbat kuchlanish beriladi. Kanal o'rnatilgan — MDP tranzistorlar ko'pincha kanal zaryadlarga kambag'allashgan rejimlarda ishlataladi. Bu rejimda ishlagan MDP tranzistorining xarakteristikasi VII.9- rasmida keltirilgan n-p o'tishli tranzistornikiga o'xshash bo'ladi va u (VII.5) va (VII.6) - formulalar bilan ifodaланади.



VII.10-rasm. Kanal o'rnatilgan maydon tranzistorining tuzilishi.



VII.11-rasm. Induksiyalangan kanalli maydon tranzistorining tuzilishi

Istok va stok oralig'iga tok manbai qanday ishorada


Induksiyalangan kanalli tranzistorning tuzilishi VII.11-rasmida keltirilgan. Tranzistorning asosi katta solishtirma qarshilikka ega bo'lgan n-o'tkazuvchanlikli materialdan tayyorlanadi. Yarim o'tkazgichning yuqori sirtida p-o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan istok va stok sohalari hosil qilinadi. Asos va bu sohalar orasida n - p o'tishlar hosil bo'ladi.

ulanmasin, ulardan biri doimo berk bo'ladi. Shu sababli dastlabki holatda o'tkazuvchi kanal bo'lmaydi. Zatvorga kichik miqdordagi musbat potensial qo'yilsa, asosning zatvorga yaqin joylashgan sohasida manfiy zaryadlarni induksiyalaydi. Kuchlanish orttirila borib, ma'lum bir chegaraviy i_{zyach} qiymatga yetganda, sirtida p-tipli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan inversion qatlamlam hosil bo'ladi. Bu qatlamlar orqali istokdan stokka tomon tok oqa boshlaydi. Zatvordagi kuchlanish ortishi bilan kanalning o'tkazuvchanligi ortadi. Odatda i_{zyach} kuchlanish 1 --- 6V atrofida bo'ladi.

Tranzistorda asos sifatida n-tip yarim o'tkazgich o'miga, p-tipli yarim o'tkazgich olinib, istok va stok qatlamlarini n-tipli qilib yasalsa, n-kanalli tranzistor hosil bo'ladi.

Kovaklarning harakatchanligi elektronlarning harakatchanligiga nisbatan sekinroq bo'ladi. Shu sababli r-kanalli tranzistorlarga nisbatan, p-kanalli tranzistorlar ko'proq ishlataladi. Integral sxemalarda ishlataladigan MDP tranzistorlar bundan mustasno. Ularda bir-birini to'ldiruvchi p va r-kanalli tranzistorlar ishlataladi. Bunday MDP tranzistorlar komplementar tranzistorlar deb ataladi.

VII.12-rasmida, induksiyalangan r-kanalli maydonli tranzistorning VAXi keltirilgan. Xarakteristikada AV oraliq chiziqli soha, VD to'yinish sohasi deb yuritiladi. $/_s$ ning kuchlanishiga



VII.12-rasm. Induksiyalangan kanalli maydon tranzistorining chiqish xarakteristikasi

bog'liqligi chiziqli sohada

$$I_c = \kappa [2(U_{uu} - U_{uus})U_{cu} - U_{cu}^2] / (U_{cu} + U_{uu} - U_{uus}) \quad (\text{VII.10})$$



to'yinish sohasida

$$I_c = h(U_{uu} - U_{uus})^2 / (U_{uu} - U_{uus}) \quad (\text{VII.11})$$

formulalar orqali ifodalananishi mumkin. Proporsionallik koefitsienti tranzistorning konstruksiyasi, o'lchamlari va o'tkazuvchi kanal konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi.

Maydonli tranzistorlar ham, bipolyar tranzistorlarga o'xshab umumiy istokli (*UD*), umumiy stokli (*US*) va umumiy zatvorli (*UZ*) sxemalarda ulalishi mumkin.

Maydonli tranzistorlarning chastota xususiyatlari zaryad tashuvchilarining harakat tezligi va kanal uzunligi bilan belgilanadi. Zarra chalar tezligini esa kanaldagi maydon kuchlanganligini oshirib ko'paytirish mumkin. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan maydonli tranzistorlarning chastota diapazoni 1500 MGs gacha borib, uzibulanish vaqt 30 ns atrofida bo'ladi.



VII.13 - rasm. Maydon tranzistorlarining shartli belgilari: *a* - R- kanalli; *b* - p-kanalli; *c* - zatvori izolyatsiyalangan p- kanalli; *d* - zatvori izolyatsiyalangan n- kanalli; *e* - zatvori izolyatsiyalangan n- kanalli to'yingan.

f - zatvori izolyatsiyalangan p- kanalli to'yingan; *g* - zatvori izolyatsiyalangan n- kanalli to'yingan.

VII.IV. Tiristorlar

Tiristor - to'rt qatlamlili yarim o'tkazgichli asbob. Uning tuzilishi VII.14-rasm,a)da keltirilgan. Unda uchta n-p o'tish bo'llib,

A nuqtaga manbaning musbat qutbi, *B* nuqtaga manfiy qutbi ulansa, *P1* va *P2* o'tishlar to'g'ri, *P2* esa teskari *r-p* o'tishga ega bo'ladi. Uning ishlash prinsipini tushuntirish uchun, tiristorni ikkita n-p-n va p-n-p tipli tranzistorlarga ekvivalent deb qaraladi (VII.14rasm, b). Bu paytda tiristordan o'tuvchi umumiyl tok uchta tashkil etuvchidan iborat bo'ladi:


$$I = I_{a1} + I_{a2} + I_{vopiq} \quad (\text{VII.20})$$

bundan,


$$I - I_{vopiq} / 1 - (a_1 - a_2) \quad (\text{VII.21})$$

bu yerda, I_{vopiq} — tiristor yopiq bolganda o'tadigan tok, a_1 va a_2 — mos ravishda tranzistorlarning tok uzatish koeffitsientlari.

Agar $a_1 + a_2$ qiymat birga nisbatan kichik bo'lsa, umumiyl tok I_{vopiq} ga yaqin bo'ladi. Asbobni ochiq holatga o'tkazish uchun $a_1 + a_2$ qiymat birga intilishi kerak. Bunday holda tiristor orqali o'tuvchi tok keskin ortadi.



VII.14-rasm tranzistorning strukturna tuzilishi (a) va uni qo'sh tranzistor kabi tasvirlash (b).




VII.15-rasm
Tranzistorning amper xarakteristikasi.

Tranzistorning ishlash prinsipiiga ko'ra, a ning qiymati emitter tokiga bog'liq. Emitter toki kichik bo'lganda, a ham kichik qiymatga ega bo'ladi. Emitter toki ortishi bilan a ham keskin ortadi. *A* va */S* nuqtalar orasidagi kuchlanishni orttirib borilsa, tiristor orqali o'tuvchi tok dastlab sezilarli darajada o'zgarmaydi. Kuchlanish ortib ma'lum yorib o'tish qiymatiga yetganda *P2* o'tishda zaryadlarning ko'chkisimon ko'payishi ro'y berib, a_1 va a_2 qiymati keskin ortadi. Natijada asbob ochiq holatga o'tadi. Bu holatga o'tishi uchun kerak

bo'ladigan kuchlanish qiymati $U_{ko'ch}$ — ko'chkisimon ko'payish kuchlanishi deb yuritiladi. Agar tiristordan o'tuvchi tok $a_1 + a_2 \approx 1$ shartni qanoatlantirsa, tiristor ochiq holatda qoladi. Bu tok, tutib turuvchi tok I_{tut} deb ataladi. Tiristorning volt-amper xarakteristikasi VII.15-rasmida keltirilgan. Xarakteristikaning OA qismi tiristorning yopiq (uzilgan) holatini ifodalaydi. Bunda tiristorning qarshiligi katta bo'ladi (bir necha megaom). Kuchlanish yorib o'tish qiymatiga etganda nuqta) tiristordan o'tuvchi tok keskin ko'payadi. A nuqtada tiristorning differensial qarshiligi nolga yaqin bo'ladi. AV qismida esa differensial qarshilik mansiy qiymatga ega bo'ladi. Kuchlanishning bundan keyingi ortishi tokning ortishiga olib keladi (BV qism).

Kuchlanishni kamaytirib tiristordan o'tuvchi tokni I_{tut} dan kichik qiymatga tushirilsa, tiristor yopiq holatga e'tadi.

Faqat ikki chetki qismlaridan ularish uchlari chiqarilgan tiristor diodli *tiristor* (dinitrator) deb ataladi. O'rta sohalarning biridan ularish uchi chiqarilgan tiristor triodli tiristor yoki *trinistor* deb ataladi. Bu uchta qo'shimcha manbadan anodga yoki katodga nisbatan to'g'ri r-p o'tish hosil bo'ladigan kuchlanish berilsa a_1 yoki a_2 ning keskin ortishiga olib keladi (VII.16 - rasm). Bipolyar tranzistordagi kabi α_1 yoki α_2 ni orttirish uchun boshqaruvchi kuchlanishning katta qiymatiga ega bo'lish shart emas.



VII.16-rasm. Tiristor.

Tranzistorning VAXi VII.17 - rasmida keltirilgan. Xarakteristikada boshqaruvchi tok ortishi bilan yorib o'tuvchi kuchlanish kamayishi ko'rsatilgan.

Odatdag'i trinistorlarga nisbatan teskari holatda ishlaydigan berkiluvchi trinistorlar mavjud. Bunday trinistorlarda boshqaruvchi elektrodga mansiy potensial berilganda ochiq holatdan yopiq holatga o'tadi. Berkiluvchi trinistorlarning tuzilishi odatdag'i trinistorlardan farq qilmaydi.


Besh qatlamga ega bo'lgan tiristorlar simmetrik tiristor (simostor) deb ataladi. VAXning to'g'ri va teskari shohobchalarida manfiy qarshilikli sohalari mavjud.

Simistorni ochiq holatga o'tkazish boshqarish signali yordamida, yopiq holatga o'tkazish — kuchlanishni uzish yoki uning uianish qutbini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Tiristorlarning shartli belgilari VII.18 - rasmida keltirilgan.



VII.17-rasm. Tiristorning volt-amper xarakteristikasi



VII.18- rasm. Tiristorning tashqi ko'rinishi va shartli belgilari;


VIII - bob. Optoelektron asboblar

VIII.1. Yorug'lik chiqaruvchi diodlar va injeksiyali lazerlar

Yorug'lik chiqaruvchi diodlar (YoD) – elektron va kovaklar rekombinatsiyasi hisobiga elektr energiyasini to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik nurlari energiyasiga (infraqizil va ko'rish diapazonidagi) aylantiruvchi yarimo'tkazgichli dioddir.

Ko'pchilik YoD larda elektron va kovaklar nurlanish rekombinatsiyasi, unga to'g'ri o'tish bo'yicha kuchlanish berilganda noasosiy zaryad tashuvchilarni n-p o'tish orqali injeksiyalanishi tufayli sodir bo'ladi. Injeksiyalangan zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi xarakteri YoD da qo'llanilayotgan yarimo'tkazgich moddasiga bog'liq bo'lib, uning eng asosiy xususiyati energetik

zonalar strukturasidir. Ana shu strukturasiga bog'liq holda hamma yarimo'tkazgich moddalar ikkita turga bo'linadi, zonalararo to'g'ri va noto'g'ri o'tuvchi elektronli moddalar (YIII.1-rasm).



YIII. 1-rasm. To'g'ri (a) va noto'g'ri (b) elektron o'tishlar.

Elektronlarning o'tkazuvchanlik zonasidan valent zonaga o'tishida energiya va impulsning saqlanish qonuni bajarilishi kerak. Energiyaning saqlanish qonuniga asosan to'g'ri va noto'g'ri o'tish uchun $G_1 - G_2 = h\nu$ (YIII.1-rasm, a)) noto'g'ri o'tish uchun $X_1 - G_8 = h\nu$ (YIII.1-rasm,b)), bu erda grek harflari bilan $k=0(G)$ va $k=0(X)$ to'lqin sonlariga ega bo'lgan zonalardagi elektronlar energiyalari belgilangan, $h\nu$ -kvant energiyasi.

Impulsning saqlanish qonuni to'g'ri o'tishda avtomatik ravishda bajariladi va bu o'tishlar to'lqin sonining bittagina ($k = 0$ bo'lgan) qiyamtlarida yuzaga keladi. Shuning uchun elektronning o'tkazuvchanlik zonasidagi kvaziimpulsi, valent zonadagi kvaziimpulsliga teng ($k_s = k_0$). Noto'g'ri o'tish (YIII.1-rasm, b) $X_1 \rightarrow E_B$ ularda uchinchi zarracha fonon qatnashgan holda mumkin bo'ladi. Impulsning saqlanish qonuni $k_s = k_0 + k_r$ bajarilishi uchun sononga k_r impuls beriladi.

Alohiда Yo'llardan tashqari harf yoki sonlarni hosil qilish imkoniyatini beruvchi raqam-belgili indikator (RBI)lar keng ko'lamda qo'llaniladi.


Yorug'lik diodi materialiga qarab undan chiquvchi nuring rangi ham har xil bo'ladi. Masalan: galiy arsenid infraqizil, galliy arsenid fosfid - qizil yoki zarg'aldoq; galliy fosfid - sariq yoki yashil rang chiqaradi.

Yorug'lik diodlarida to'g'ri yo'nalishdagi kuchlanish tushuvi, teskari yorib o'tish kuchlanishi $5 + 50$ V atrofida bo'ladi.

Yorug'lik diodlari, yorug'lik indikatorlari, optoelektron asboblarida nurlanish manbai, kino fototexnikada va avtomatik qurilmalarda ishlatalidi.

Injeksiyali lazerlar. Yorug'lik diodlaridan farqli ravishda, yarimo'tkazgichli lazerlarda fotonli rekombinatsiya spontan-ixtiyoriy emas, balki majburiy amalgaliga oshadi.

Yarimo'tkazgichli lazerlar - to'g'ridan - to'g'ri elektrik yoki nokogerent nurlanish energiyasini kogerent nurlanish energiyasiga aylantiruvchi asboblardan iborat. Lazerlarning ishlashi uchun stimullashgan fotonli rekombinatsiya, fotonlar yutilishidan iborat bo'llmog'i kerak. Bu munosabat kristaldagi energetik sathlar joylashuvga bog'liq. Termodynamik muvozanat holatida valent zonadagi elektronlar soni, o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar sonidan ancha ko'p, shuning uchun ham yorug'likning yutilishi majburiy nurlanishga ega bo'ladi. Stimullashgan fotonli rekombinatsiyada o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronlar konsentratsiyasi ularning valent zonadagi konsentratsiyasidan ortiq bo'llishi kerak. Bunday holat sathlarning invers joylashuvi deyiladi. Yarimo'tkazgichlarda invers joylashish hosil qilishning eng ko'p tarqalgan usuli - to'g'ri ulangan n - p o'tishdagi zaryad tashuvchilar injeksiyasidir. Shuning uchun ham bunday lazerlar injekcion lazerlar deyiladi. YII.2- rasmda arsenid galliyidan yasalgan yarimo'tkazgichli lazer qurilmasi ko'rsatilgan.



VIII. 2-rasm. Yarimo'tkazgichli lazer qurilmasi.

YIII.II. Fotoelektrik yarimo'tkazgichli asboblar.

Fotorezistor – bu ishlash prinsipi fotoo'tkazuvchanlik hodisasiga asoslangan, nur qabul qiluvchi fotoelektrik yarimo'tkazgichidir. Fotorezistorning ishlashi odatda, berilgan kuchlanish va yorug'lik oqimida, fotopriyomnikdan oqayotgan fototok kattaligi bilan xarakterlanadi.


Uning son qiymati yorug'likdagi va qorong'ilikdagi toklarning farqiga teng:

$$I_f = I_{yor} - I_{qor} \quad (\text{YIII.1})$$

Qorong'ilikdagi tok I_{qor} – bu fotorezistorga yorug'lik tushmaganda, unga ishchi kuchlanishi berilgan paytdagi oqayotgan tok. Ba'zida qorong'ulikdagi qarshiligi R_{kar} tushunchasidan foydalananildi, bu qarshilikning qiymati o'n kiloomdan bir necha megaomgacha bo'ldi:

$$R_{kar} = U_{ishchi} / I_{kor.} \quad (\text{VII.2})$$

Fotorezistorning volt – amper xarakteristikalarini yorug'likdagi tokining unga ma'lum qiymatli yorug'lik oqim tushirilganda quyilgan kuchlanishdan bog'lanishi bo'lib, ular sochilish qvvatining mumkin bo'lgan maksimal qiymatlari oralig'ida chiziqlidir. Yorug'lik oqimi o'zgarganda chiziqlarning qiyaligi o'zgaradi (VII.3-rasm).



IV.III.3- rasm. Fotorezistorning volt amper xarakteristikalarini oilasi (a) va spektral xarakteristikalarini (b).

Fotorezistorning asosiy xarakteristikasi tok bo'yicha sezgirligi bo'lib, u fotorezistorga nominal kuchlanish ulanganda hosil bo'lgan fototokning, yorug'lik oqimiga nisbatiga teng:

$$S_i = (I_{yor} - I_{kar})/F = I_f/F, \quad (\text{YIII.3})$$

Bu yerda, F – yorug'lik oqimi (I_m) yoki nurlanish quvvati (V_t).

Fotopriyomnikni sezgirligi temperaturaga bog'liq bo'lib, tok bo'yicha sezgirlik temperatura oshishi bilan keskin kamaya boradi, chunki zaryad tashuvchilarning muvozanatli konsentratsiyasi va yoritilganda yuzaga keladigan ortiqcha zaryad tashuvchilar rekombinatsiyasi ehtimoliyati oshishi fototokning kamayishiga, bu esa sezgirlikning kamayishiga olib keladi.

Solishtirma tok bo'yicha sezgirlik fototokning, yoruqlik oqimi va fotorezistorga quyilgan kuchlanishi ko'paytmasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$S_o = I_f / (FU) = S_i / U. \quad (\text{YIII.4})$$

Kuchlanish bo'yicha sezgirlik tok oqishi tufayli paydo bo'lgan signal kuchlanishi U_s ning, yorug'lik oqimiga nisbatiga teng:

$$S_o = U_s / F. \quad (\text{YIII.5})$$

Tok va kuchlanish bo'yicha sezgirlik fotorezistorning integral sezgirligidir, chunki ular fotorezistorni murakkab yorug'lik bilan yoritganda o'lchanadi.

Fotorezistorning monoxramatik nurlanishga fotosezgirligi, uning spektral sezgirligi bo'lib, fototokning ma'lum yorug'lik to'lqin uzunlikdagi yorug'lik oqimiga nisbatiga teng:

$$S_\lambda = I_f / F_\lambda . \quad (\text{YIII.6})$$


Fotorezistor fototokinining tushayotgan yorug'lik to'lqin uzunligiga bog'liqligi uning spektral xarakteristikasi deyiladi. YIII.4 - rasmida ba'zi fotorezistorlarning spektral xarakteristikalarini keltirilgan.

Fotorezistorning inersionligi – fotorezistorga yorug'lik tushishi yoki o'chishidan keyingi fototokning o'rashgan qiymatiga nisbatan Θ marta o'zgarishi uchun ketgan doimiy vaqt bilan xarakterlanadi. Odatda fotorezistorlarning doimiy vaqt $\tau = 10 \mu\text{s} - 10\text{ms}$ ni tashkil qildi.

YIII.III. Fotodiödlar.

Fotodiod – bu fotosezgir elementi yarimo'tkazgichli diod strukturasidan iborat bo'lgan, ichki kuchaytirishga ega bo'lмаган fotogalvanik yorug'lik qabul qilgichdan iborat.

Ishchi holatida fotodiödga teskari kuchlanish ullanadi (YIII.4 - rasm).



YIII.4 rasm. Fotodiödning ulash sxemasi (a) va volt-amper xarakteristikasi (b).

Yorug'lik ta'siri tor zonali yarimo'tkazgichilar (InSb, Ge) to'yinish tokiga teng bo'lgan qorong'ulikdagi tokidan tashqsari, I_f fototok oqishiga olib keladiki, uning yo'nalishi to'yinish tokining yo'nalishi bilan mos tushadi. Chunki n va p sohalardan noasosiy zaryad tashuvchilar fazoviy zaryad tashuvchilar sohasiga ketadi va ular o'tishning teskari tokini oshiradi yoki aynan u noasosiy zaryad tashuvchilar hisobidan yuzaga keladi.

Fotodiiodning volt-amper xarakteristikasi (VAX) quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$I = I_s \left(e^{\frac{qU}{kT}} - 1 \right) - I_t, \quad (\text{VII.7})$$

Bu yerda I_s - qorong'ulikdagi tok.

YIII. 4 - rasmida tor zonali yarimo'tkazgichli fotodiiodning VAXi ko'rsatilgan.

Yorug'lik tushmagan paytda teskari tok to'yinish tokiga teng bo'ladi. Yorug'lik tushganda teskari tok oshadi va u kuchlanishga bog'liq bo'lmaydi. Qorong'ulikdagi VAX koordinata boshidan o'tadi. Yoritilganda esa teskari toklar koordinatasi bo'ylab siljiydi, fotodiiodga kuchlanish berilmaganda ham, fotogalvanik effekt yuzaga kelganligi tufayli, undan teskari tok oqadi. Fotodiiodning ishlash rejimi, kuchlanish manbai fotodiiodning yopilish yo'nalishida ulangan, YIII.4 rasmida ko'rsatilgan sxemaga mos keladi. Bu rejim fotodiiodli rejim deb yuritiladi. uning ishchi rejimi esa, VAXning uchinchchi kvadrantida joylashgan (YIII.4 - rasm).

Fototokning yorug'lik oqimiga bog'liqligi fotodiiodning yorug'lik yoki energetik xarakteristikasi deyiladi. Fotorezistorlardan farqli ravishda fotodiiodlar fototoki, yoritilganlikning oddiy sathlarida, yorug'lik oqimiga chiziqli bog'langan:


$$I_f = S_i F, \quad (\text{VII.4})$$

Bu yerda S_i - integral sezgirlik.

Fotodiiodning spektral xarakteristikasi, sezgirlikning to'lqin uzunligidan bog'liqligini ko'rsatadi (YIII.5 - rasm).

Fotodiiodlarning fotorezistorlarga nisbatan afzalligi ularning tez ta'sir etuvchanlidigadir. Agar fotodiiodni modullashgan yorug'lik

bilan yoritilsa, fototok fototashuvchilar p – n o'tishga etgandan keyin paydo bo'ladi.



VIII.5-rasm. Germaniy va kremniy asosidagi fotodiodlarning spektral xarakteristikalarini.

Fotodiodlarning keng ko'lamda qo'llanilishi, ularning ko'rish, ultrabinafsha va infraqizil spektor sohalariga sezgirligi, yuqori tezta'sir qiluvchanligi, shovqinini pastligi, uzoq muddatga xizmat qilishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishidadir. Asosiy qo'llanilish sohalari: hisoblash texnikasida axborotlarni kiritish va chiqarish qurilmalarida, fotometriyada, avtomatikada va shu kabi boshqa bir qancha sohalardadir. Fotodiodlarning istiqbolli qo'llanilish sohalari optoelektronikadadir.

VIII.IV. Yarimo'tkazgichli fotoelementlar.

Yarimo'tkazgichli fotoelementlar – bu optik nurianish energiyasini elektr energiyasiga aylantirish uchun ishlataladigan fotodiodlardir. Bularga quyosh elementlari kiradi.

Fotoelementlarning quyoshi elementlaridan farqi shundaki, ular fotogalvanik rejimda ishlaydi, ya'ni tashqi manbaga ulanmaydi, o'zları kuchlanish generatorlari sifatida ishlaydi. Fotodiodlar VAXiga murojaat qilamiz (VIII.5- rasm). VAXni toklar o'qi bilan kesishish nuqtasi salt yurish rejimi ($R_n = 0$)ga mos keladi. Zanjir uzilgan paytdagi fotoelementga yorug'lik tushganda paydo

bo'ladigan salt yurish rejimi kuchlanishiini fotodiodning VAX (VIII.7) tenglamasidan, $I = 0$ deb qabul qilgan holda aniqlaymiz:

$$U = \left(\frac{\kappa T}{q} \right) \ln\left(\frac{I_f}{I_s + 1}\right). \quad (\text{VII.9})$$

Kuchlanishning paydo bo'lishi fotogalvanik effektga asoslangan. Agar (VIII.4- rasm) E ta'minlovchi manbani olib tashlansa, iste'melchi uzilgan zanjarda, $p = n$ o'tishning elektr maydoni tomonidan fototashuvchilarning bo'llinishi, p - va n -sohalarda ortiqcha zaryad to'planishiga sabab bo'ladi. Natijada p-soha - musbat zaryadlanadi, n - soha - mansiy va elektrodlar orasida foto-EYuK deb ataluvchi potensiallar farqi hosil bo'ladi. Foto-EYuK salt yurish kuchlanishiga teng va u ta'qilangan zona kengligi bilan aniqlanuvchi $U_{sy} < \Delta E / q$ qiymatdan osha olmaydi. Kremniyli fotoelementlar uchun $U_{sy} = 0,5 - 0,6$ V. (VIII.9) dan ko'rindaniki foto-EYuKnii oshirish uchun to'yinish tokini kamaytirish kerak, ya'ni ta'qilangan zonasini kengligi va zaryad tashuvchilar diffuzion uzunligi katta bo'lgan yarimo'tkazgichli materiallarni qo'llash kerak.

Fotoelementlar ish rejimida VAXi to'rtinchchi kvadrantda joylashadi (VIII.4- rasm). O'rtacha yoritilganlikda kremniyli fotoelementlarning qisqa tutashuv toki zichligi $20 - 25 \text{ m}^2/\text{sm}^2$ ni tashkil qiladi. Fotoelementlar VAXi asosida, uncha katta bo'llagan quvvat ajraluvchi iste'melchi qarshiligining optimal qiymati tanlansadi. Buning uchun VAXda $P_{max} = IU$ bo'lgan nuqta tanlanadi.


VIII.6- rasmida fotoelementning iste'melchi qarshilik turli qiymatlarga ega bo'lgandagi yorug'lik xarakteristikasi keltirilgan.

Fotoelementning integral sezgirligi, qisqa tutashuv tokining yorug'lik oqimiga nisbatiga teng:

$$S_i = I_{kt} / F. \quad (\text{VII.10})$$


Yorug'lik xarakteristikasiga salt yurish kuchlanishining yorug'lik oqinidan bog'liqlik xarakteristikasi ham kiradi (VIII.6- rasm, b)). Bu bog'lanish logarifmik qonun asosida o'zgaradi.

Fotoelementning yorug'lik xarakteristikasi, ya'ni qisqa tutashuv tokining yorug'lik to'lqin uzunligiga bog'liqligi, uning materialiga bog'liq.



VIII.6 rasm. Istemolchi qarshiligining qiymatlarida fotoelementning yorug'lik xarakteristikaları (a) va salt yurish kuchlanishining yorug'lik oqimidan bog'liqligi (b).

Fotoelementlar kreminiy, germaniy, arsenid galliy, sultfid kadmiy va boshqalardan tayyorlanadi. VIII.8 – rasmida quyosh batareyalarida qo'llaniladigan kreminiyli va selenli fotoelementlar spektral xarakteristikalarini keltirilgan. Selenli fotoelementlarning spektral xarakteristikalarini odam ko'zi spektral sezgirligiga yaqin. Kreminiyli fotoelementlar ko'proq quyosh energiyasini o'zgartirgichlarga mos keladi. Spektral xarakteristikasi quyosh nurlarining ideal qabul qilgichlariga yaqin $\lambda_{max} = 0,75 - 0,80 \text{ mkm}$.



VIII.7 rasm. Quyosh elementining spektral xarakteristikasi (a) va struktyraviy tuzilishi.


Fotoelementlarning asosiy parametri, foydali ish koefitsienti (FIK) $\eta = P_{\max} / P$ dir, u fotoelementdan olib mumkin bo'lgan maksimal elektr toki quvvatining fotoelementga tushayotgan yorug'lik quvvatiga nisbati bilan hisoblanadi. Kremniyli quyosh elementlarining FIKi 12% ga yetadi. Arsenid galliy-alyuminiy ($Al_xGa_{1-x}As$) dan yasalgan fotoelementlarning istiqboli keng bo'lib, ularda FIK 20% ga yetadi.

Hozirgi paytda fotoelementlar asosida yasalgan quyosh batareyalari Er sun'iy yo'doshlarida, kosmik kemalarda va orbitalararo stansiyalarda mustahkam ta'minlovchi manba sisatida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

VIII.V. Fototranzistorlar.

Fototranzistor - bu fotosezgir elementi kuchaytirishni ta'minlovchi tranzistor strukturasidan iborat bo'lgan fotogalvanik yorug'lik qabul qilgichdir.

Fototranzistor yuzasi yoki butun hajmi bo'yicha yorug'lik ta'sirida paydo bo'lgan noasosiy zaryad tashuvechilar p-n o'tishga borib yetadi. Bunda yorug'lik p-n o'tishiga perpendikulyar ravishda baza yuzasiga, emitter yoki kollektor yuzasiga tushishi mumkin. Yorug'lik kollektor o'tishiga tik bo'lgan baza sohasiga tushganda ko'proq effektivlikka ega bo'ladi.



VIII. 8 rasm. Fototranzistoring ulash sxemasi (a) va chiqish xarakteristikasi (b).

Fototranzistorning bazasi ulanmagan holdagi sxemasini qarab chiqaylik (VIII.8-rasm).

Kollektor o'tish zanjiriga teskari, emitter o'tishga esa to'g'ri ye'nalishda kuchlanish ulangar. Baza sohasiga yorug'lik tushganda elektron – kovak jufti yuzaga keladi. Kovaklar kollektor o'tishning elektrik maydoniga tortiladi, elektronlar esa baza sohasida hajmiy ortsqicha zaryad hosil qilib qoladi. Bazada elektronlar sonining osnishi bilan emitter o'tishidagi potensial barer kamayadi. Natijada emitter sohasidan bazaga injeksiyalanayotgan kovaklar oqimi kuchayadi va oqibatda kollektor toki, hamda tashqi zanjirdagi tok oshadi.

Fototranzistorning chiqish zanjiridagi tok:

$$I_{f\alpha} = \{ \alpha_n / (1 - \alpha_n) \} I_f = K_{ue} I_f \quad (\text{VII.11})$$

Bu yerda, K_{ue} – umumiy emitterli (UE) sxemadagi kuchaytirish koeffitsienti, α_n – emitterning tok bo'yicha uzatish koeffitsienti.

Fototranzistorning sezgirligi kollektor – baza diodining fotosezgirligi va emitterning tok bo'yicha uzatish koeffitsientiga bog'liq.

Fototranzistorning tok bo'yicha integral sezgirligi baza sohasi yoritilgan hol uchun, baza – kollektor o'tish hosil qilgan "fotodiод" sezgirligidan K_{ue} marta ko'p,

$$S_i = K_{ue} S_d \quad (\text{VIII.12})$$

Uning son qiymati bir lyumenga yuz milliamperni tashkil qiladi.

Fototranzistorning qorong'ulikdagisi kollektor toki fotodiодning qorong'ulikdagisi tokidan sezilarli darajada katta, chunki bazada hosil bo'lgan birlamchi tok K_{ue} marta kuchaytiriladi.

UE sxema bo'yicha ulangan fototranzistorning bazani har xil qiymatlari yorug'lik oqimi bilan yoritgandagi chiqish xarakteristikalari bipolar tranzistorining bazasiga turli qiymatlari toklar berilgandagi chiqish xarakteristikalari bilan bir xildir (VIII.8 – rasim, b).

Fototranzistorga yorug'likning ta'siri tok bo'yicha integral sezgirlik bilan, baza tokining ta'siri esa tok bo'yicha kuchaytirish


koefitsienti bilan xarakterlanadi. Shunday qilib fototranzistor ikkita: optik va elektrik kirishga ega.

Fototranzistorning spektral xarakteristikalari, fotodiodning spektral xarakteristikalari bilan bir xil.

Fototranzistorlar bazasi germaniyidan yasalgan bo'lsa, germaniyili fototranzistor (FT - 1) deyiladi. Fototranzistorlarning barcha parametrlari haqida to'liq ma'lumotlar optoelektron asboblar so'rovnomasidan olinadi.

VIII.VI. Optron asboblar.

Bitta qurilma ichiga fotodiiod va yorug'lik diodi joylashtirilgan asboblar *optronlar* deb ataladi (VIII.9-rasm). Bunday asboblar signallarni bir



VIII.9-rasm. Optron asboblar

blokdan ikkinchisiga o'tkazishda ishlataladi. Asbobdan foydalanish uzatuvchi blokning chiqish qarshitigi, qabul qiluvchi blokning kirish qarshiligidan katta farq qilganda, bloklar o'zaro elektr jihatidan ulanishi mumkin bo'lmaganda yuqori samara beradi.

**IX - bob. Yarimo'tkazgich va yarimo'tkazgichli asboblar
fizikasini o'rganishga doir laboratoriya ishlari
1 - Laboratoriya ishi. Yarimo'tkazgichlarda solishtirma
o'tkazuvchanlik va Xoll effektini o'rganish.**

Ishning maqsadi. Yarimo'tkazgichlarni namunada Xoll EYuksining magnit maydon o'zgarishiga bogliqligini o'rganish, namunaning elektr o'tkazuvchanligini, tok tashuvechilar konsentratsiyasini va boshqa ba'zi kattaliklarni aniqlash.

Ishning mazmuni. Xoll EYuK (ε_{xoll}) sini tajribada aniqlash namunaning berilgan b qalinligida va undan oqayotgan I tokni qayd qilgan holda amalga oshiriladi. Bundan olingan Xoll EYuKsini namunaning qalinlik birligi va tok kuchi birligida hisoblanadi, ya'ni:

$$\varepsilon_{xoll} = \varepsilon_{xoll} b / I, \quad (1)$$

bu solishtirma yoki keltirilgan Xoll EYuksi deyiladi. Keltirilgan Xoll EYuksi magnit maydon induksiysi Bga proporsionaldir,

$$\varepsilon_{xoll} = RB \quad (2)$$

bu yerda, proporsionallik koefitsienti, $R = 1/en$ - (3)

o'rganilayotgan moddaning xarakteristikasi bo'lib, Xoll koefitsienti yoki Xoll doimiysi deyiladi. U tok tashuvechilarning sochilish mexanizmiga bog'liq. Xususiy o'tkazuvchanlikli toza yarim o'tkazgichlar uchun panjara tebranishlarida sochilish sodir bo'layotgpn holda, Xoll doimiysi uchun

$$R = 3p/8en \quad (4)$$

ifoda o'rnilidir.

Qalinligi b bo'lgan namunadan tok o'tkaziladi va B magnit maydonining har xil qiymatlarida Xoll EYuksi o'lchanadi. (1) formuladan solishtirma Xoll EYuksi hisoblanadi va chiziqli ko'rinishga ega bo'lgan ε_{xoll} bog'lanish grafigi quriladi. ε_{xoll} to'g'ri chizig'inining qiyalik burchagi tangensi orqali Xoll doimiysi R aniqlanadi. (4) formulani qo'llab, tok tashuvechilar zaryadining absolyut qiymatini elektronning zaryadi $e = 1,6 \cdot 10^{-19}$ Klga teng deb olib, tok tashuvechilar konsentratsiyasini aniqlash inumkin:

$$N = 3p/8Re = 7,4 \cdot 10^{-18} \cdot I/R \quad (5)$$

Agar Xoll doimiysini aniqlash bilan bir qatorda

yarimo'tkazgichlar solishtirma qarshiliginini ham aniqlansa, unda shu natijalar asosida tok tashuvchilar harakatchanligi kabi muhim xarakteristikani hisoblash mumkin.

Tok tashuvchilar harakatchanligi (μ) deb, tok tashuvchilarning kuchlanganligi IV/m bo'lgan elektr maydonida dreyf tezligiga aytildi. Bu tezlik

$$v = \mu B \quad (6)$$

kabi ifodalanadi, E – elektr maydon kuchlanganligi.

Agar tok tashuvchilar konsentratsiyasi n , zaryadi e bo'lsa, namunadan oqayotgan tok zichligi,

$$g = env = en\mu E \quad (7)$$

bo'ladi. Om qonunidan $g = \sigma E$ (8)

(7) va (8) lardan σ – elektr o'tkazuvchanligining harakatchanlikka bog'liqligi ifodasi quyidagicha bo'ladi

$$\sigma = en\mu. \quad (9)$$

Solishtirma elektr qarshilik

$$\rho = \frac{1}{\sigma} = \frac{1}{ne\mu}, \quad (10)$$

bu yerdan:

$$\mu = \frac{1}{\rho n} \quad (11)$$

(4) ni hisobga olgan holda Xoll doimiysi R uchun tok tashuvchilar harakatchanligi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mu = \frac{8}{3\pi} \frac{R}{\rho} = 0,85 \frac{R}{\rho}. \quad (12)$$

O'rganilayotgan solishtirma elektr qarshiliginini aniqlash uchun namuna ustida bir-biridan $\nabla\ell$ masofada joylashgan ikkita kontaktlar orasidagi elektr qarshiligi o'chanadi. Ana shu maqsadda namunadan uning uzunligi bo'yicha I elektr toki o'tkaziladi va ko'satilgan kontaktlar orasidagi potensiallar farqi $U\rho$ o'chanadi. Unda solishtirma qarshilik quyidagi formuladan hisoblanadi,

$$\rho = \frac{U\rho}{I} \frac{bd}{\nabla \ell} \quad (13)$$


bu yerda bd - namunaning ko'ndalang kesimi.

O'r ganilayotgan yarimo'tkazgich tipini, ya'ni tok tashuvchilar ishorasini aniqlash uchun namunadan oqayotgan I tok va V magnit maydonining tanlab olingan yo'nali shida o'lchanayotgan Xoli FYUKsi ishorasini aniqlash kerak.

Tajriba qurilmasining tavsifi. Xoll effekti va solishtirma qarshilikni o'lchash sxemasi 1-rasmida keltirilgan [6]. O'r ganilayotgan namuna, yarimo'tkazgichli moddadan to'g'ri burchakli plastinka shaklida(o'lchamlari qurilmada keltirilgan) yasalgan.

Namunadan o'tayotgan tok uchun manba bo'llib, ε_1 batareya xizmat qiladi. Tok kuchi R qarshilik magazini bilan boshqariladi, mA milliampermetri bilan o'lchanadi.

Namunadagi magnit maydon, o'zgarmas tok manbai I dan ta'minlanuvchi SN elektromagniti yordamida hosil qilinadi. Elektromagnit orqali oqayotgan I_m tokining yo'nali shini S_1 qayta ulagich yordamida o'zgartirish bilan amalga oshiriladi.



1 - rasm. Tajriba qurilmasi sxemasi

Bu yerda:

1 - I - tok tashuvchilar uchun mo'ljallangan kontaktlar;

2 – 2 – qarshilikni o’lchash uchun kontaktlar;

3 – 3 – Xoll effektini o’lchash uchun kontaktlar.

Namunadagi 2 – 2 kontektlar orasidagi U_{ρ} kuchlanishini va 3

3 Xoll kontaktlari orasidagi Xoll kuchlanishi $U_{X_{\text{oll}}}$ ni kompensatsiya usuli bilan o’chanadi. Bu masalada kompensasiyalı sxema sisatida yuqori omli R37-1 potensiometri qo’llaniladi. Potensiometrda ikkita turli kuchlanishlarni o’lchash uchun X_1 va X_2 kirish klemmalari mavjud.

X_1 kirishiga U_{ρ} kuchlanish, X_2 kirishiga $U_{X_{\text{oll}}}$ beriladi.

Potensiometrning ishchi toki uning B_A va B_V klemmalariga ulangan ε_1 va ε_2 batareyalaridan hosil qilinadi. Ishchi toki kattaligini NI: normal elementi yordamida o’osil qilingan etalon kuchlanishi bilan o’rnataladi.

Potensiometrning nol indikatori G galvanometrdan iborat. Galvanometrning noli o’lchash sxemasidagi kompensatsiya holati yuzaga kelganini bildiradi.

1 – masliq. Solishtirma qarshilikni o’lchash

Potensiometr taysifidan uning ishlashi bilan tanishing. “Izmereniya” tugmachaşını bosing va uni uneha katia bo’lmagan burchakka burib, shu holatini belgilang.

Ishchi toki I_A ni o’rnating. Buning uchun ish turi qayta ulagichini I_A holatiga o’tkazing va I_A tokiga taalluqli bo’lgan “sredne” va “tochno” tugmachalar bilan galvanometr strelkasini nolga o’rnating.

Ish turi qayta ulagichini X_1 holatiga qo’ying. Qayta ulagichni “10 Mom” holatiga qo’yib, galvanometri qo’pollashtiring.

R qarshilik magazini dekadalari holatini tekshiring (magazin to’lig’icha ishga kiritilishi kerak). S₁ kalitni ulab, I = 0,5A tokni o’rnating. Hosil bo’lgan kuchlanish U_{ρ} ni o’lehang.

Kuchlanishni o’lchash quyidagicha amalga osbiriladi: o’lchash dekadasi qayta ulagichlari yordamida kompensatsiya kuchlanishi to indikator strelkasi nolga kelgunga qadar osbirila boradi. Bunda sezgirlik asta-sekin oshib boradi. Galvanometrning maksimal sezgirligida kompensatsiya holatiga erishiladi va hisobot olinadi.

Tokning $I = 1,2$ va 3 mA qiymatlarida $U\rho$ o'lchab, (13) formuladan solishtirma qarshilik ρ va solishtirma o'tkazuvchanlik hisoblanadi.

2 – mashq. Xoll doimiysini aniqlash

Ish turi qayta ulagichini I_2 holatiga qo'yib, o'rtacha va aniq boshqaruva ruchkalari yordamida ishchi toki o'rnatiladi.

Ish turi qayta ulagichi X_2 holatga. Namuna orqali o'tayotgan tokni $I = 1mA$ qilib o'rnatiladi. O'zgarmas tok manbai ulanadi va elektromagnit o'ramlaridan oqayotgan tokni $I = 0,1A$ ga o'rnatiladi. Yuqoridagi $U\rho$ kuchlanishini o'lhash usuli kabi U_{xoll} kuchlanishini o'lchanadi.

O'lhashlarni elektromagnitdan oqayotgan I_m tokni o'zgartirish yordamida magnit maydonining bir necha qiymatlarida takrorlang.

Keyin elektromagnitdag'i tok yo'nalishini (S_2 qayta ulagichi bilan) va potensiometrning X_2 ulagichlari qutbini o'zgartirgan holda, elek-tromagnitning o'sha tokida, yana U_{xoll} kuchlanishi o'lchanadi. Xoll EYuk (ε_{xoll})sining haqiqiy qiymatini, maydonning ikki xil yo'nalishida,ikkala kuchlanishning o'rta arifmetik qiymati kabi,

$$\varepsilon_{xoll} = \frac{U_1 + U_2}{2} \text{ formuladan aniqlanadi.}$$

Xoll solishtirma EYuk (ε_{xoll})sini (1)dan hisoblab, ε_{xoll} ning magnit maydon induksiyasi V dan bog'liqligi grafigini quring va ε_{xoll} (V) to'g'ri chizig'ning qiyalik burchagi tangensi orqali Xoll doimiysi Rni aniqlang.

Namunadagi tokni $I = 3mA$ ga o'zgartirib o'lhashlarni takrorlang.

Solishtirma qarshilik ρ va Xoll doimiysi R larning topilgan qiymatidan foydalanib, (5) va (12) formulalar yordamida o'rganilayotgan yarimo'tkazgichdag'i tok tashuvchilar konsentratsiyasi n va ularning harakatchanligi μ larni hisoblang.

Tok tashuvchilar tipini aniqlash uchun namunadagi tok manbai ε_1 ning qutbidan, I tokning yo'nalishini, magnit maydoni Vning yo'nalishini(magnit strelka yordamida) va potensiometri X_2

klemmasi qutbidan Xoll I YuK (ε_{vol})ning ishorasini topish zarur.

Nazorat savollari.

1. Xoll effekti nimadan iborat?
2. Xoll klassik effektining sababi nimada?
3. Zaryad tashuvchilarga ta'sir qilayotgan Lorens kuchiniň formulasini vektor ko'rinishda yozing. Tok i va magnit maydoni V larning berilgan yo'nalishi uchun uning yo'nalishini toping.
4. Tok tashuvchilar konsentratsiyasi nima va u qanday hisoblanadi?
5. Tok tashuvchilar harakatchanligi qanday aniqlanadi va u elektr o'tkazuvchanligi bilan qanday bog'langan?
6. Yarimo'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlikning qanday tiplari kuzatiladi?

2 - Laboratoriya ishi.

Yarim o'tkazgichli diod va diodli to'g'rilaqichlarni o'rganish

Mazkur laboratoriya ishida yarim o'tkazgichli diodning volt-amper xarakteristikasi quriladi, hamda diodlarning har xil o'zgaruvchan tokni to'g'rilaqich sxemalarida qo'llanishi o'rganiлади.

Tajriba qurilmasini tavsiisi.

Tajriba K 4822 tipli laboratoriya qurilmasida o'tkaziliadi.

Tadqiqot manbai sifatida D 226B tipli germaniy yarim o'tkazgichli diod olinadi. Tajriba o'tkazgichi uchun kerakli barcha asboblar diodlar, rezistorlar va kondensatorlar maxsus № 6 panelga o'matilgan. Rezistorlarning har birining qarshiligi 330 Om dan, sig'imirniki esa 1,5-30 mкF ni tashkil qildi. Panelda kerakli sxemanini yig'ishni osonlashtirish uchun qo'shimcha klemma(ulagich)lar o'matilgan.

Bu panellar K4822 tipli laboratoriya stoli tarkibiga kiradi. Laboratoriya stolida bir necha xil panellar, o'chov asboblari, ular shamlari mavjud, hamda turli kattalikka ega bo'lgan ta'mulovchi

o'zgaruvchan va o'zgarmas tok manbai keltirilgan.


Ta'minlovchi manba, tokni 0 - 500mA va kuchlanishni 0 25V gacha silliq o'zgartirish imkonini beradi.

O'zgaruvchan kuchlanishi manbai sifatida chastotasi 20-1000 Gs chegarada, 2V kuchlanishli simmetrik va nosimmetrik chiqishi mayjud bo'lgan o'zgaruvchan tok generatori xizmat qiladi. O'zgarmas kuchlanishni o'lchash uchun 1,5 V chegarali voltnetr, o'zgarmas tokni o'lchash uchun 75-150 mA chegaradagi milliampermestr qo'llaniladi. Chiqish signalini shaklini ko'rish uchun «X» va «U» chiqishli ossillograf qo'llaniladi.


1-mashq. Diodning volt-amper xarakteristikasini qurish

1 - rasmdagi sxema yig'ilsin.

Asbobni tok manbaiga ularshdan oldin o'zgarmas tok manbaining chiqish kuchlanishini boshqaruvchi potensiometri ruchikasi, uning eng kichik kuchlanishiga mos qiymatini belgilovchi soat strelkasiga teskari, chap chegara holatida ekanligiga ishonch hosil qiling.



1 - rasm. Tajriba
qurilmasi sxemasi.



2- rasm. Volt-amper xarakteristikasini
ossillograf ekranida ko'tish sxemasi.

O'zgarmas tok manbaini manbaga ulang va uning qiziqlishi uchun 5 minut kutib turing.

Kuchlanishni pog'onali oshira borib, dioddan oqayotgan I tok

kuchi va unga berilgan U kuchlanish orasidagi bog'lanishni qayd qilib bering. Olingan natijalarni jadvalga yozib, ular asosida grafik quring.

2 - mashq. Volt-amper xarakteristikasini ossillograf ekranida ko'rish


2 - rasmdagi sxema yig'iladi.

Chastotasi bir necha yuz gers bo'lgan u generator orqali sxemaga U_N o'zgaruvchan kuchlanish beriladi. Klemmalarga ossillografini ulab uni tashqi razvyortka ish holatiga o'tkazing. Asboblar manbaga ufanadi. Generatordan sxemaga berilayotgan o'zgaruvchan kuchlanishni oshira borib, xarakteristika kuzatib boriladi va uni daftarga chiziladi.

3 - mashq. Turli xil to'g'rilaqich sxemalarini o'rGANISH

Bir yarim davrli to'g'rilaqich

3 - rasm. a da keltirilgan sxema yig'iladi



3 - rasm. O'zgaruvchan tok to'g'rilaqlarining turli sxemalari: a) bir yarim davrli to'g'rilaqich, b) o'rta chiqishli ikki yarim davrli to'g'rilaqich, v) ko'priq sxemali ikki yarim davrli to'g'rilaqich.

Sxemaga U_N generatordan o'zgaruvchan kuchlanish bering.

Ossillografini ichki razvyortka ish rejimiga o'rnating. Ossillograf ekranida ikki-yarim davrli signal tasvirini o'rnating.

Ossillograf ekranida kuzatilayotgan R rezistoriga ta'sir etuvchi kuchlanish grafigini chizib oling.

Ikki yarim davrli to'g'rilaqich

(0) o'rta chiqishli transformatoridan ta'minlovchi ikki yarim davrli to'g'rilaqich sxemasini qarash talab etiladi. Qo'llanilayotgan generator bunday chiqishga ega.

3 -- rasm, b da keltirilgan sxema yig'ilsin.

Ekranda kuzatilayotgan R rezistordagi kuchlanish ossillogrammasi chizilgan va uni bir yarim davrli to'g'rilaqich ossillogrammasi bilan solishtiring.

Ikki yarim davrli ko'priq sxemali to'g'rilaqich

O'rta chiqishi bo'limgan transformatoridan ta'minlovchi ikki yarim davrli to'g'rilaqich sxemasini qarash talab etiladi. Bunday to'g'rilaqich generatorming simmetrik chiqishidan ulanadi.

3 -- rasm, v da keltrilgan sxema yig'ilsin.

Ekranda kuzatilayotgan R rezistordagi kuchlanish ossillogrammasini chizing va uni oldingi to'g'rilaqichlar ossilogrammalari bilan solishtiring.

Nazariy savollar


1. Yarim o'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligi tabiatini qanday?
2. Aralashmali elektronli va teshikli o'tkazuvchanlik qanday paydo bo'ladi?
3. Tashqi kuchlanish ta'sirida p-n o'tishda qanday jarayonlar kuzatiladi?
4. Diodning volt-amper xarakteristikasini tushuntiring?
5. Diodning volt-amper xarakteristikasi temperaturaga qanday bog'liq.
6. O'rganilayotgan sxemalarni aszallikkleri nimalardan iborat?
7. Yarim o'tkazgichli diodlarni ketma-ket va parallel ulashlarning ahamiyati nimada?
8. Yarim o'tkazgichli va vakuumli diodlarning kuchilik va yutuqlari nimada?

3 - Laboratoriya ishi. Tiristorni o'rganish

Mazkur ishning maqsadi yarim o'tkazgichli asbob-tiristor bilan tanishtirishdan iboratdir. Bu asbob kalit rejimida ishlovchi asboblar guruhiiga kiradi. U boshqaruva elektrodiga signal berilganda ochilishi ya'ni elektr tokini o'tkazish va yopilish ya'ni elektr tokini o'tkazmaslik xususiyatlari bilan xarakterlidir.

Tiristorning tuzilishi.

Tiristorning asosini ketma-ket keluvchi r- teshikli va n-elektronli o'tkazuvchanchikka ega bo'lgan to'rt qatlamlı strukturadan iborat kreminiy plastinkasi tashkil qiladi. (1- rasm)



1- rasm. Tiristordagi r-n - o'tishlar sistemasi.
Bu to'rt qatlam uchta P_1 , P_2 va P_3 r-n - o'tishni tashkil qiladi.

Manbaning musbat qutbiga ulanuvchi chetki r- sohasi – anod, manbaning manfiy qutbiga ulanuvchi chetki n- cohasi – katod deb ataladi. Tiristor nomi uch va undan ko'proq r-n – o'tishga ega bo'lgan hamma qayta ulanuvchi asboblarga mosdir. Ikki elektrod (anod va katod) ga ega bo'lgan asboblar diodli tiristorlar yoki dinistorlar deyiladi.

Dinistorda ro'y beradigan fizik jarayonlar.


1- rasmdan ko'rinish turibdiki P_1 va P_3 r-n – o'tishlar to'g'ri ulanadi. P_2 o'tish esa teskari ulanadi.

Tiristorga kichik kuchlanish qo'yilgan bo'lsin. Bunda tiristordan oqayotgan tok P_2 o'tish bilan aniqlanadi, chunki P_1 va P_3 o'tishlar qarshiligi juda kichik. P_2 o'tishda esa, teskari ulangani uchun qarshilik juda katta, shuning uchun tiristor volt-amper xarakteristikasini boshlang'ich qismi ($0\Delta_1$), r-n - o'tish volt-amper


xarakteristikasini teskari qismi bilan mos tushadi.

Shuni nazarda tutish, kerakki P_2 o'tishdan oqayotgan tok bu sohadagi noasosiy zaryad tashuvchilarni harakatidan paydo bo'ladi: o'rta r-soha uchun elektronlar noasosiy tok tashuvchilar, o'rta n-soha uchun esa teshiklar noasosiy tok tashuvchilar hisoblanadi.

Tiristorga qo'yilgan kuchlanish oshib borishi bilan P_1 va P_2 - o'tishlardagi to'g'ri tok r-n o'tishining volt-amper xarakteristikasining to'g'ri yo'naliishiga mos kelgan holda oshib bordi. Natijada o'rta r-sohada (P_1 o'tish orqali) elektronlar konsentratsiyasi osha boradi, o'rta n-sohada esa (P_3 o'tish orqali) teshiklar konsentratsiyasi osha boradi.



2 - rasm. Tiristorning volt-amper xarakteristikasi.



3 - rasm. Boshqaruv tokining turli qiymatlariida tiristorning volt - amper xarakteristikasi.

Shunday qilib P_2 o'tishga ta'lluqli sohalarda nasosni tok tashuvchilar konsentratsiyasi oshib ketadi. Bu esa P_2 o'tishning qarshiligini kamaytiradi. Natijada — eng muhim bo'lgan vaziyat P_1 , P_2 , P_3 o'tishlar orasida kuchlanish tushuvi qayta taqsimlanadi. Shunday qilib bu uchala o'tishda ham tok bir xil oqadi. Cm qonuniga muvofiq tiristorga qo'yilgan kuchlanishning juda kam qismi P_2 o'tishda tushadi. Bu esa P_1 va P_2 o'tishlarga qo'yilgan kuchlanishlarning yanada oshishidan dalolat beradi.

Endi r-n - o'tishni volt-amper xarakteristikasining to'g'ri

yo'nalishidagi qismi chiziqli emasligiga e'tibor bersak: tiristorga qo'yilgan kuchlanish oshib borishi bilan P_1 va P_2 o'tishlardan o'tayotgan tok, yanada kuchliroq oshadi.

O'rta n - va p - sohalarga noasosiy zaryad tashuvchilarning kirishi ko'payadi, P_2 - o'tishning qarshiligining kamavishi tezlashadi, bular hammasi, P_1 va P_2 o'tishlardagi kuchlanishning yanada oshishiga olib keladi (2 - rasm, A₂ nuqta). Bular hammasi P_1 va P_2 o'tishlardagi tekning keskin oshira boradi. Oqibatda tiristorga qo'yilgan kuchlanishning U₃ = U_{ulan} qiyamatida bu jarayon lava oqimi kabi tus oladi. Tok sakrab oshib ketadi (A₃ - A₄ qismlar, 2 - rasm). Uning kattaligi esa tiristorga ketma-ket ulangan R_N nagruza qarshiligi bilan chegaralanadi. Bu paytda P₂ - o'tish va butun tiristorning qarshiligi shunchalik kamayadiki, qo'yilgan kuchlanishning atigi IV qismi tiristorda, qolgan hamma qisri R_N qarshilikka tushadi. P₂ o'tishga taalluqli bo'lган sohalarda noasosiy tok tashuvchilar shunchalik ko'payib ketadiki endi uni to'g'ri yo'nalishda ulangan deb hisoblash mumkin. Tiristor ochiq paytda uchala o'tish ham to'g'ri ulangan.

Shunday qilib tiristorga qo'yilgan kuchlanish U_{ulan} kuchlanishdan kichik (U < U_{ulan}) bo'lsa, tiristor yopiq, undan tok o'tmaydi, U < U_{ulan} kuchlanishda tiristor ochiladi va undan oqayotgan tok R_N qarshiligi bilan chegaralanadi.


Tiristor

Agar o'rta sohalardan biriga chiqish oyoqchasi ulansa unda boshqaruva elektrodiiga ega bo'lган asbob, uch elektrodli tiristor yoki trinistor hosil bo'ladi. Boshqaruva elektrodi orqali to'g'ri ularishda ishllovchi o'tkinchi kuchlanish berish bilan U_{dar} kuchlanishni kattaligini boshqarish mumkin. Boshqaruva elektrodi orqali oqayotgan tok I_{bosh} qancha katta bo'lsa, U_{ulan} kuchlanishi shuncha kichik bo'ladi. Tiristorning bu xususiyati 3 - rasm dagi volt-amper xarakteristikasida aniq ko'rsatilgan.

Boshqaruva toki (I_{bosh}) qancha katta bo'lsa, o'tishga injeksiyalanuvchi noasosiy tok tashuvchilar, shuncha kucheyadi va 'ristorning ochilishi uchun qo'yilgan kuchlanish shuncha kamayadi.

Eng yuqori U_{ulan} kuchlanish boshqaruv toki bo'limganda, ya'ni tiristorning, dinistorga aylanishida kuzatiladi va aksincha, I_{bosh} tokining sezilarli qiymatlarida tiristorning xarakteristikasi oddiy diodning to'g'ri tok xarakteristikasiga yaqinlashadi. Tiristorni ishga tushirish xarakteristikasi deb, ataluvchi I_{bosh} va U_{ulan} lar orasidagi bog'lanish grafigi, 4 - rasmda keltirilgan.

Tiristor radio va elektrotexnikada juda keng qo'llaniladi. U o'chirib-ulagich(kalit) sifatida avtomatik boshqaruv qurilmalarida (masalan, temperatura stabilizatorida) asosiy element sifatida ishlataladi. Har xil formatdagi impuls generatorlarini yaratishda, to'g'rilaqich sxemalarida, o'zgaruvchan tok quvvatini boshqarish uchun juda ko'p qo'llaniladi.




4 - rasm. Tiristorning ishga tushirish xarakteristikasi.

Tajriba qurilmasining tavsisi.

Tiristorning ishlashi bilan tanishuv va uning xarkteristikalarini qurish K 4822 tipli laboratoriya qurilmasida olib boriladi. Bu qurilmada maxsus № li panel bo'lib, unga tiristor va kerakli qarshiliklar mahkamlangan.

Qurilmada kerakli o'chov asboblari va ulash simlari, hamda kerakli kuchlanishni yetkazib beruvchi ta'minlovchi manba mayjuddir. Tiristorni tekshirish sxemasi 5-rasmda ko'rsatilgan.



5 - rasm. Tiristorni tekshirish sxemasi.

Sxemada panelda joylashmagan o'lchov asboblarining ham ulanishi ko'rsatilgan.

Boshqaruv tokini hosil qilish uchun X1, X2 klemmalariga ta'minlovchi manba orqali 0 : 9V gacha boshqariluvchi kuchlanish beriladi (toki < 100 mA). R₁ va R₂ qarshiliklari. (b) boshqaruv elektrodidagi tokni yanada silliq boshqarish imkonini beruvechi, kuchlanish bo'lувchisini tashkil qiladi. O'lchov chegarasi 15 mA bo'lgan, mA₁ milliampermetri tiristerning boshqaruv elektrodi tokini o'lchash uchun mo'ljallangan.

Tiristorni harakteristikasini olishda, uning boshqaruv elektrodi toki juda qisqa chegarada o'zgaradi, bu qisqa o'zgarishni mA₁ strelkali asbobda ilg'ab olish amalda mumkin emas. Shuning uchun zanjirga R₁ qarshiligi ulanib, undagi kuchlanish tushuvchi sifrali voltmetr (V) bilan o'lchab olinadi.


Tiristor anodiga (X3 ulagich) generator orqali 0 + 60V o'zgaruvechan kuchlanish beriladi, yoki ta'minlovchi manbadan 0 + 100V chegarada o'zgarmas kuchlanish beriladi.

mA_2 miliampermetri tiristor orqali oqayotgan tokni o'chaydi.

R_1 rezistori tiristordan oqayotgan tokni chegaralaydi. Shu bilan birga tiristor tokini juda aniq o'lhashi maqsadida R_4 ga parallel qilib sifrali voltmetr ulangan bo'lib u qarshilikdagi kuchlanish tushuvini ko'rsatadi.

1-Mashq. Tiristor volt-amper xarakteristikasini ossillograf ekranida kuzatish.

6 - rasmdagi sxema yig'iladi X_3 va X_2 ulagichlarga generator orqali $40 \pm 50\text{V}$ kuchlanish beriladi. Boshqaruv elektrodiga esa $3 \pm 3\text{V}$ o'zgarmas kuchlanish beriladi. Ta'minlovchi manba kuchlanishini va R_1 qarshiligidini o'zgartirish yordamida boshqaruv elektrodi tokini shunday holatga keltiradiki, bunda teristor ochiladi – ossillograf ekranida esa tiristorning VAXi paydo bo'ladi.



6 - rasm. Tiristor VAXini ossillograf ekranida kuzatish sxemasi.

Boshqaruv elektrodi tokini o'zgartirib, tiristorning ochilish potensiali o'zgarishi, ya'ni xarakteristikadagi o'ng chetki nuqta siljishi kuzatiladi. Xarakteristikalardan biri chizib olinadi.

2-Mashq. Tiristorni ishga tushish xarakteristikasini olish

Bu xarakteristikani, ya'ni tirisitorning anod bo'yicha ochilish potensiali va boshqaruv elektrodi toki orasidagi bog'lanishni, anodga o'zgaruvchan kuchlanish berib, olamiz. R_3 rezistoriga parallel qilib raqamli voltmetr ulansin, tiristor anodiga generator orqali beriladigan o'zgaruvchan kuchlanishni 50-60 V qilib o'rnatilsin. Agar tiristor ochiq bolsa, boshqaruv tokini kichraytirib, uni yopiladi. Keyin silliq oshira borib tiristor ochiladi. Tiristorning ochilishi yoki yopilishini ossillogramma yoki mA₂ milliampermetri orqali kuzatish mumkin. Tiristorning ulanish (ochilishi) momentini, R_3 rezistoridagi U_a va ΔU_{R_3} - kuchlanish qiymatlarini jadvalga yozib olish yordamida ilg'ab oling. Undan keyin boshqaruv tokini oshira borib, U_a ning keyingi qiymati o'rnatilsin, tiristor ochilsin, U_a va ΔU_{R_3} ning yangi qiymatlari jadvalga yozib olinsin. O'lchab olingan har bir nuqta uchun boshqaruv toki $I_b = \Delta U_{R_3}/R_3$ ni hisoblab, jadvalga yozilsin. U_{ulan} va I_b orasidagi bog'lanishni grafikda tasvirlansin.

3-Mashq. Tiristorni volt-amper xarakteristikasini olish.

Bu xarakteristikani o'zgarmas tokda olinsin, buning uchun X_3 ulagichga o'zgaruvchan kuchlanish o'mniga manbadan "20-300V" qiymatlarda o'zgarmas kuchlanish berilsin (6-tasm). Raqamli voltmetri to'g'ridan-to'g'ri tiristorga "anod" va "katod" elektrodlariga ulansin. Ossillografni sxemadan uzilsin.

Boshqaruv tokining, tiristor ochiq holga keluvchi holatida ma'lum qiymati o'rnatilsin. Manbadan tiristor anodiga berilayotgan kuchlanishni zinali o'zgartirib, V sifrali voltmetr bilan o'lchanuvchi U_a - kuchlanish bilan tiristordan oquvchi anod toki I_a orasidagi bog'lanish olinsin. Anod toki mA₂ milliampermetri yordamida o'lchanadi. O'lechov natijalari jadvalga yozib olinsin.

Hamma o'lhashlar boshqaruv toki I_b ning boshqa qiymatlari uchun

takrorlansin. I_b tokining yangi qiymatlari uchun U_a va I_b lar orasidagi bog'lanish grafikda tasvirlansin.

Nazorat savollari.

1. p-n - o'tish VAXi ko'rinishi qanday?
2. Tristorning tuzilishi qanday?
3. Tristorning qanday turlari mavjud?
4. Dinistorning VAXi qaysi ko'rnishda?
5. Nima uchun kuchlanishning ma'lum qiymatida dinistorning ochilishi ro'y beradi?
6. Tiristor boshqaruv elektrodi vazifasini tushuntiring?



4 - Laboratoriya ishi.

Tranzistorni o'rganish

Mazkur laboratoriya ishida tranzistor xarakteristikalarini olinadi, parametrlari hisoblanadi, tranzistorli kuchaytirgichda o'zgaruvchan signalni kuchaytirish kuzatiladi.

Tranzistorning tuzilishi va undagi fizik jarayonlar.

Ikkita r-n - o'tishdan iborat bo'lgan yarim o'tkazgichli asbob, bipolar tranzistorini qarab chiqamiz. Tranzistorda tok hosil qilishda ikki xil ishorali zaryad tashuvchilar ham qatnashadi. Tranzistorning tuzilishi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Bipolar tranzistorining tuzilishi a), elektrik belgisi b), n-r-n - tipli tranzistorining ularash sxemasi v).

U uchta turli xil elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan soha hosil qilingan germaniy yoki boshqa yarim o'tkazgichli plastinkadan iboratdir. n-r-n - tipli bipolar tranzistori teshikli o'tkazuvchanlikka

ega bo'lgan o'rta sohadan, hamda elektronli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikki chetki sohalardan iborat. O'rta soha baza deyiladi, ikki chetki sohalar esa emitter va kollektor deyiladi. Baza sohasi juda yupqa, 1 mikrondan oshiq bo'limgan holda bo'ladi.

Bipolar tranzistorlariga tashqi manba ulanganda bo'layotgan jarayonlarni ko'rib chiqamiz. Odatda emitter o'tishiga asosiy zaryad tashuvchilar uchun to'g'ri bo'lgan kuchlanish ulanadi, kollektor o'tishiga esa teskari kuchlanish beriladi. Tranzistorning bunday ulanishida emitter baza orasidagi tok I_e , emitter sohadan baza sohasiga harakatlanayotgan elektronidan hosil bo'ladi. Teshiklar baza sohasidan emitter sohasiga oson o'tadi, ular uchun emitter o'tishi to'g'ri ulangan. Lekin baza sohasidagi elektronlar konsentratsiyasiga nisbatan ancha kam qilib yasaladi. Shuning uchun ham bazadan emitterga o'tayotgan teshiklar tokini hisobga olmasa ham bo'ladi. Elektronlarning bir qismi baza sohasidagi teshiklar bilan rekombinatsiyalashadi, qolgan qismi esa baza sohasidan o'tib ular uchun ochiq bo'lgan kollektor sohasiga diffuziyalanadi. Shunday qilib, kollektor toki emitter tokiga teng bo'lib, undan baza sohasida rekombinatsiyalangan elektronlarning sezilarli darajada bo'limgan qismi bilan farq qiladi. Emitter sohasidan o'tgan teshiklarning bir qismi baza sohasidagi elektronlar bilan rekombinatsiyalaran ekan, baza sohasida tashqi zanjirga ketgan ortiqcha elektronlar hisobidan yangi teshiklar paydo bo'ladi. Shunday qilib, baza tokini tashqi zanjirdan keluvchi teshiklar toki deb hisoblash mumkin.

Emitterning vazifasi zaryad tashuvchilarini baza sohasiga injeksiyalash (qo'yib yuborish, sochish, faqat emissiya deb tushunmaslik kerak) o'tkazib yuborishdan iboratdir. Baza -- bu emitterdan noasosiy zaryad tashuvchilar injeksiyalanadigan sohadir. Kollektor bazadan zaryad tashuvchilarni ekstraksiyalash (qabul qilish, yutish) sohasidir.

Yuqorida qarab o'tilgan toklar orasida Kirxgof qonuniga bo'ysinuvchi quyidagi munosabat o'rinnlidir

$$I_e = I_k + I_b. \quad (1)$$


Tok o'zgarishlari uchun ham xuddi shunday munosabat o'rinnlidir

$$\Delta I_e = \Delta I_k + \Delta I_b. \quad (2)$$


Bipolar tranzistori xarakteristikalarini.

Tranzistorda ta'sir etuvchi tok va kuchlanishlar orasidagi bog'lanish murakkab xarakterga egadir. Ularni grafik ko'rinishida ifodalash ancha qulaydir.

Bipolar tranzistorini asosiy ularash sxemalaridan biri bo'lgan umumiy emitterli ularash sxemasini qarab chiqamiz.



2 - rasm. Umumiy emmitterli ularash sxemasi.



3 - rasm. Tranzistorning kirish va chiqish xarakteristikalarini.

Kuchaytirish kerak bo'lgan kirish kuchlanishi U_{sign} - baza emitter qismiga beriladi. Bazaga esa U_{be} siljish kuchlanishi beriladi. Bu paytda baza zanjiridan qandaydir tok oqadi, ya'ni tranzistorning kirish qarshiligi nisbatan kichik bo'llib qoladi. Kollektor (chiqish

zanjiri) E_{ke} manbadan ta'minlanadi. Kuchaytirilgan chiqish kuchlanishini olish uchun bu zanjirga nagruzka ulangan.

Statistik xarakteristikalarini olish

Bu xarakteristikalar o'zgarmas tokda olinadi.

Berilgan sxema uchun kirish xarakteristikalarini sifatida quyidagi bog'lanishlarni qarash mumkin:

- I_b (U_{be}) bog'lanishi $I_{ke} = \text{const}$, bo'lganda, chiqish xarakteristikasi sifatida esa:

- I_k (U_{ke}) bog'lanishi $I_b = \text{const}$, bo'lganda.

Ko'rsatilgan xarakteristikalar oilasi, 4-rasmida kelitilgan ($U_{ke1} < U_{ke2}$, $I_{b1} < I_{b2} < I_{b3}$).

Tranzistorning kirish va chiqish xarakteristikalarini yarim o'tkazgichli diodning VAXi bilan uzviy bog'langan.

Haqiqatdan ham kirish xarakteristikasi to'g'ri kuchlanishda ishlovchi emitter o'tishiga mos keladi. Shuning uchun ular yarim o'tkazgichli diodning to'g'ri tok xarakteristikasiga mos keladi. Chiqish xarakteristikasi esa yarimo'tkazgichli diodning teskari tok xarakteristikasiga mos kelib, ular teskari asosiy zaryad tashuvechilari uchun kuchlanishda ishlovchi kollektor o'tishning xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kirish xarakteristikasi orqali tranzistorning kirish qarshiligi aniqlash mumkin:

$$R_{kir}, U_{ke} = \text{const} \text{ bo'lganda}, \quad (3)$$

chiqish xarakteristikasidan esa chiqish qarshiligi:

$$R_{chiq}, I_b = \text{const} \text{ bo'lganda}. \quad (4)$$

Bunday yo'l bilan hisoblab topilgan R_{kir} va R_{chiq} qarshiliklari tranzistorning o'zgaruvchan tok bo'yicha qarshiliklari ya'ni kirish va chiqish zanjirlaridan oqayotgan amplitudasi nisbatan yuqoriroq bo'lgan toklarga tranzistor shunday qarshilik ko'rsatadi. Hisoblab topilgan R_{kir} va R_{chiq} qarshiliklari qiymatlari tranzistorning o'zgaruvchan tok va kuchlanishni kuchaytirish sxemalariдан ishlashini tahlil qilishda q'llaniladi.

Tranzistorning muhim parametrlaridan biri baza tokini kuchaytirish koefitsienti β bo'lib, u kollektor emitter orasidagi potensiallar farqi o'zgarmas bo'lganda, kollektor toki orttirmasining baza toki orttirmasiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$\beta = \frac{\Delta I_k}{\Delta I_b}, U_{ke} = \text{const}, \text{bo'lganda.}$$

(5)

Emitter tokining asosiy qismi kollektor zanjiridan oqqanligi uchun uning son qiymati I_e dan yetarlicha kattadir.

Zamonaviy tranzistorlarda $\beta = 10 \div 300$.

Tranzistor yordamida kuchlanishni kuchaytirish

Har qanday ularash sxemadan (UE - umumiy emitterli, UB - umumiy bazali, UK - umumiy kollektori) ham, tranzistor kirish va chiqish zanjirlaridagi elektr toklarini kuchaytirgich sisatida foydalanish mumkin. Bu tranzistorli kuchaytirgichlarni xuddi tok kuchaytirgichi sisatida gapirishga imkon beradi. Lekin tranzistorning kirish toki chiqish toki bilan bog'langan. UELi sxemada baza toki R_{kir} qarshiligi orqali baza emitter orasida ta'sir etuvchi kuchlanishga bog'liq. Shuning uchun bu bog'lanishdan foydalanib kuchlanishni kuchaytirish haqida gapirish mumkin. Fizika nuqtai nazaridan shuni e'tiborda tutish lozimki, kuchaytirishni aniqlovchi nagruzkadan oqayotgan chiqish toki emitter o'tishidagi potensial bareming balandligiga bog'liq, ya'ni baza va emitterga ta'sir etuvchi kuchlanishga bog'liq. Shuning uchun ham tranzistorli sxemalarni tok bo'yicha, kuchlanish bo'yicha va tabiiyki quvvat bo'yicha kuchaytirgich sisatida qarash mumkin.

Tranzistorli sxemalarda kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koefitsientini taxminan quyidagicha hisoblash mumkin.

$$K = \frac{\Delta U_{chnq}}{\Delta U_{kir}} = \frac{\Delta I_k R_n}{\Delta I_b R_{kir}} = \beta \frac{R_n}{R_{kir}}. \quad (6)$$

Bu oddiy formula tranzistor ish rejimini uncha ko'p bo'lmagan sohalarida o'rinnlidir. Ko'proq anqlik talab etiladigan hisoblashlar juda murakkab ko'rinishda olib boriladi.

Hamma kuchaytirgichlarda bo'lgani kabi tranzistorli kuchaytirgichlarda ham kuchaytirish koefitsienti signal chastotasi va uning amplitudasiga bog'liq.

Tajriba qurilmasini tavsifi.

Tranzistorni o'rganish K4822 tipli laboratoriya qurilmasida olib boriladi. Bu qurilmada har xil kattalikdagi o'zgaruvchan va o'zgarmas tok bilan ta'minlovchi manba o'lechov asboblari va ularash simlari mavjuddir. Shuningdek bu qurilmada nomerlangan platalar mavjudki, ulardan keraklisi tanlab, tajriba o'tkazish uchun kerakli sxema yig'iladi. Biz, platani tanlab olamiz, rezistor qarshiliklari, kondensator mahkamlangan bo'sib, ular kerakli sxema bo'yicha ularash imkonni mavjuddir.

Tajriba o'tkazish uchun quyidagi sxemani yig'amiz (5-rasm)

O'zgarmas tok 5mA , hamda 15 V kuchlanish qurilmadagi ta'minlovchi manbadan beriladi. Panelda baza va kollektor tok va kuchlanishlarini o'lehashga mo'ljallangan o'lechov asboblarni ularash uchun klemmalar mavjud. Generator va ossillograflarni ularash uchun ham maxsus klemmalar joylashtirilgan.

Tranzistor bazasidagi o'zgarmas kuchlanish kattaligi R_1 potensiometri, kollektorda esa R_4 potensiometr orqali boshqariladi. R_2 rezistori baza tokini chegaralash va baza kuchlanishini yanada silliqroq boshqarishdagi yordamchi rol bajaradi. R_3 kuchaytirishni o'rganishda nagruzka vazifasini bajaradi R_5 rezistori R_1 rezistoriga berilayotgan kuchlanish qiymatini kamaytiradi. S_1 kondensatori tranzistorning o'zgarmas tok bo'yicha ishlash rejimini buzmasdan, uning bazasiga o'zgaruvchan signalni o'tkazib turadi. S_2 o'zgaruvchan tok bo'yicha R_2 rezistorini bir uchini manbani mansiy qutbi bilan tutashtirib turadi.

Sxema elementlari kattaliklari:

$R_1 = R_4 = 6,8\text{ k}\Omega$, $R_2 = 56\text{ k}\Omega$, $R_3 = 1,1\text{ k}\Omega$, $R_5 = 12\text{ k}\Omega$, $S_1 = S_2 = 1\text{ m}\mu\text{F}$

Baza toki $100\text{ }\mu\text{A}$ chegarali mikroampmetr bilan kollektor toki 3 mA chegarali milliampermetr bilan o'chanadi.

O'zgaruvchan signal manbai sifatida amplitudasi 50 mV, chastotasi 1000 Gs bo'lgan generatordan beriladigan signal olinadi.

1-Mashq. Tranzistorning chiqish xarakteristikalarini oilasini olish

Srasmdagi sxema yig'iladi. R_1 va R_4 qarshiliklari soat streikasiga teskari bo'lgan chap chetki holatiga, R_3 rezistori peremechka bilan qisqa tutashtiriladi. O'Ichov asboblar e'legaralarini, $U_{ke}=10$ V, $U_{be}=0,2$ V, $I_k=2\text{mA}$, $I_b=30 \mu\text{A}$ qiymatlarga mos ravishda tanlanadi. Sxema manbagaga ulanadi. Baza tokini $I_b=5 \mu\text{A}$ qilib olinadi. Keyin R_4 rezistori muruvvatini kollektor toki paydo bo'lguncha buraladi. Agar bunda baza toki o'zgarsa, boshlang'ich vaziyati tiklanadi. Bu payda o' Ichab olingan - U_{ke} va I_b larning qiymatlari jadvalga yoziladi.

Baza tokini $I_b=5 \mu\text{A}$ holda R_1 rezistori yordamida o'zgartirmasdan ushlab, R_4 potensiometri yordamida U_{ke} ni oshira borib, I_b (U_{ke}) bog'lanishni oling, o' Ichov natijalarini esa jadvalga kirititing.

Bundan keyin baza tokining $I_b=10, 20, 30 \mu\text{A}$ qiymatlarida I_b (U_{ke}) bog'lanishni olib, jadvalga yozing.

O' Ichov tugagandan keyin sxemaga berilgan kuchlanishni va toklarni pasaytiring.

Olingen natijalar asosida grafik quring, I_b ning turli qiymatlari uchun I_b (U_{ke}) bog'lanishni o'zgartirishni ko'rsating.

Grafikda xarakteristikaning chiziqli qismini o'rtafiga to'g'ri keluvchi nuqtani aniqlang, taxminan $U_{ke}=U_{ke}$; $I_b=I_b$ nuqta bo'lsin.

2-Mashq. Chiqish xarakteristikalarini olish.

R_4 potensiometri yordamida $U_{ke}=U_{ke}$ qiymatni topib oling I_b (U_{be}) bog'lanishni olib, natijalarni jadvalga kirititing. Buning uchun $U_{ke}=U_{ke}$ qiymatini R_4 potensiometri yordamida U_{be} kuchlanishi oshirib boriladi.

Olingen natijalar asosida $U_{ke}=U_{ke}$ bo'lgan hol uchun I_b (U_{be}) bog'lanish quriladi. I_b (U_{be}) bog'lanish egriligiga qarab, I_b - I_b qiymatda tranzistorning kirish qarshiligidini (R_{ku}) aniqlang.

Nazorat savollari.

1. n-p-n - tipli tranzistori nimadan iborat?
2. Tranzistorlarda emitter, baza va kollektor qanday vazifani bajaradi?
3. Nima uchun tranzistorni baza qatlami yupqa qilib yasaladi?
4. Tranzistorning emitter, baza va kollektor sohalarida asosiy va noasosiy zaryad tashuvchilarini tushuntiring?
5. Qaysi zaryad tashuvchilar uchun kollektor o'tishi teskari yo'nalishda ularadi?
6. Tranzistorning kirish va chiqish xarakteristikalarini bilan yarim o'tkazgichli diodning VAXi mos kelishini tushuntiring?
7. Tranzistorning tok bo'yicha kuchaytirish koefitsienti qanday aniqlanadi.
8. Tranzistorning kirish va chiqish qarshiliklari qanday aniqlanadi.

5 - Laboratoriya ishi

Yarimo'tkazgichli fotodiод va fotorezistorlarning xususiyatlarini o'rGANISH

Ishning maqsadi -fotodiодlar va fotorezistorlar parametrlari va xususiyatlarini aniqlovchi asosiy fizik xususiyatlarini o'rGANISH, hamda bu qurilmalarning voltamper, yorug'lik va inersion xarakteristikalarini tekshirish.

O'lchash qurilmasini tavsifi.

O'lchash qurilmasini prinsipi sxemasi 1-rasmida keltirilgan. Qurilma fotodiод va fotorezistorlarning volamper va yorug'lik va inersion xarakteristikalarini qurish, hamda ularning inersion xususiyatlarini tekshirish uchun mo'ljallangan.

Qurilmaning optik tizimi ikki qismdan iborat. Birinchi qismi fotoasboblarning statik xarakteristikalarini qurish uchun mo'ljallangan. Uning tarkibiga yoritgich I va optik skamyaga mahkamlanib, yorug'lik o'tkazmaydigan korpusga joylashtirilgan,

foto asboblarini ulash uchun mo'ljallangan kolodka 2 lar kiradi. Yoritilganlik fotoasbob bilan yorug'lik manbai orasidagi masofani o'zgartirish yordamida o'zgartiriladi. Fotoasbobga tushayotgan yorug'lik oqimi,


$$F = SI / I^2$$

formula yordamida hisoblanadi, bu yerda, S – fotoasbobning ishchi yuzasi, m^2 . I – yorug'lik diodi (YoD)ning yorug'lik kuchi (sham). I – fotoasbob kalotkasi oynachasi bilan yorug'lik manbai orasidagi masofa m .


Tajriba qurilmasining ikkinchi qismida yorug'lik manbai (YoD) to'g'ri burchakli impulslar chiqaruvchi generatoridan ta'minlanadi. Sxemani fotoasbob qismi E stabillangan o'zgarmas tok manbaidan ta'minlanadi. Fotodiodni ikki xil, fotodiod va ventil rejimida ulash mo'ljallangan. Fotoasbobga parallel ravishda elektron ossillograf (20) ulanadi, bu uning inersion xususiyatini o'rganish imkonini beradi. Ossillograf ekranida elektron nuri shakli daftarga chizilib olinadi.

1-Mashq. Fotodiod va fotorezistorlarning statistik xarakteristikalarini o'rganish.

I-rasmda ko'rsatilgan sxema yig'iladi. optik spektrlari bo'yicha yorug'lik manbai va fotoasboblar tanланади bunda manba chiqarayotgan yorug'lik to'lqin uzunligi bilan fotoasbob qabul qiluvechi maksimal yorug'lik to'lqin uzunligi mos kelishi kerak kuchlanishi 9V bo'lган E_1 – manba ulanadi. bunda R_1 yorug'lik chiqaruvchi asbobning nominal tokini ta'minlab turadi fotoasbobga milliampermetr (mA) va voltmetrlar ulangan. ular yordamida fotoasbobdan oquvchi tok kuchi va kuchlanishni o'lchab olinadi. Fotoasbobdagи tok kuchi R_3 o'zgaruvchan qarshiligi orqali ma'lum qiymatga rostланади R_2 qarshiligi fotoasbob tokini chegaralab turadi.



1-rasm. Fotoasboblar statistik xarakteristikalarini o'rganish qurilmasi.



2-rasm. Fotoasboblarning inversion xususiyatlarini o'rganish qurilmasi.

Topshiriq

1. Yorug'lik oqimini 4ta har xil qiymatlarda fotodioldarning volt-amper xarakteristikasini quring.
2. 2, 5 va 10 V kuchlanishlarda, fotodioldning fotodiod rejimidagi yorug'lik xarakteristikasini quring.
3. Ventil rejimida ulangan fotodioldning qisqa tutashuv va 1 kam qiymatdagagi iste'molchi qarshilikda yorug'lik xarakteristikasini quring.
4. Fotodioldning integral sezgirligi S_{Qt} / E_e ni olingan qiymatlar asosida hisoblang va energetik xarakteristika $I_qf(E_e)$ ni quring.
5. Ventil rejimida foto EYuK relaksatsiya egrini chizig'ini ossillograf ekranidan chizib oling. $\tau_p = \frac{\Delta t}{\Delta \varphi_B}$ formula

- bo'yicha noasosiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqtি hisoblansin.
6. Har xil yorug'lik oqimida fotorezistorning volt-amper xarakteristikalari oilasini quring.
 7. Kuchlanishning ikkita qiymatida fotorezistorning yorug'lik xarakteristikasini quring.
 8. To'g'ri burchakli yorug'lik impulslari berib, fotorezistorning fototoki (τ_f) relaksatsiya vaqtি grafиги chizilsin.

Nazorat savollari

- 1.Yarimo'tkazgichlarda nurlanish mexanizmini tushuntiring.
- 2.Optik nurlanish diapazonini chizing.
- 3.Yorug'lik diodi ishlash prinsipi, uning fizik kattaliklari va xarakteristikalari.
- 4.Fotoeffekt hodisasini tushuntiring.
- 5.Fotorezistor nima, u qanday kattalik va xarakteristikalarga ega?
- 6.Fotodiodning ishlash prinsipi va xarakteristikalarini tushuntiring.
- 7.Phototranzistorning ishlash prinsipi va xarakteristikalarini tushuntiring.
- 8.Optron nima ? Ishlash prinsipi va qo'llanilishini aytib bering.
- 9.Optronlarning qaysi turlarini bilasiz?
- 10.Yoritgich va fotopriyomniklar spektor bo'yicha qanday moslanadi?

Ilova

Yarim o'tkazgichli asboblarni markalash

Diodlarni markalash OST 11.336.919—81 ga aseslangan. Bu sistema 1982 yildan boshlab kuchga kirgan. Bu sistemaga ko'ra diodlar ettiha harfiy raqamli kod bilan belgilanadi. Birinchi element yarim o'tkazgich materialini bildiradi: G yoki 1 — germaniy va uning birikmalari K yoki — 2 kremniy va uning birikmalari; A yoki 3 — galliy arsenid birikmalari; I yoki 4 — indiy birikmalari. Ikkinchchi element diod turini ko'rsatadi: D — to'g'rilaqichli, impuls rejimli; D — to'g'rilaqich bloklari va ustunlari; A — yug'ori chastotali; V — varikap; I — tunnelli va aylantirilgan; S — kuchlanish stabilizatorlari; G — shovqin generatorlari; L — optoelektronlar. Uchinchchi element diodni parametrlariga ko'ra ajratadi. Masalan: to'g'rilaqich diodning to'g'ri toki 0,3 A dan ko'p bo'llmaganlari — 1; 0,3 A dan ko'p bo'lganlari — 2 va h. To'rtinchchi element 01 dan 999 gacha bo'lgan raqamlardan iborat bo'lib, diodning ishlab chiqarishdagi konstruksiya nomerini bildiradi. Besinchchi element harfdan iborat bo'lib, diodni parametrarga ajratadi.

GOST 10862-72 ga ko'ra birinchi element diod materialini bildiradi: G — germaniy; K — kremniy; A — galliy arsenid. Ikkinchchi element asbob sinfini bildiradi: D — to'g'rilaqichli, universal, impulsli diodlar; S — to'g'rilaqich diodlari bloki; I — ustuni; A — yug'ori chastotali diod; V — varikap; I — tunnelli va aylantirilgan diodlar; L — nurlantiruvchi; tok stabilizatorlari; S — stabilitor va stabistorlar; F — fotodiодlar. Uchinchchi element diodlarni sinflarga ajratuvchi raqam. To'rtinchchi element konstruksiya nomerini bildiradi. O'lchamlari kichik diodlar turli rangdagi nuqtalar bilan markalandi. Masalan: D9B — musbat qutbida bitta qizil nuqta; D9V — olov rang nuqta; D9J — yashil rang nuqta; D9E — ikkita sariq nuqta va h.k. To'la ro'yxatini maxsus spravochniklardan olish mumkin.

Bipolar tranzistorlarni markalash. Franzistorlar ham OSE 11.336.919—81 ga muvofiq markalanadi. Birinchi element tranzistor tayyorlangan materialini bildiradi: G — germaniy va uning qotishmalari; K — kremniy va uning qotishmalari; A — galliy

qotishmalari. Ikkinchchi element- yarim o'tkazgichli asbob sifini bildiradi Bipolyar tranzistorlar uchun T harfi qo'yiladi. Uchinchi element chastota diapazoni va quvvatini ko'rsatuvchi raqam sifatida ko'rsatiladi. Masalan, chegaraviy chastotasi 3 MGs bo'lib, quvvati 0,3 Vt dan ortmaydigan tranzistorlarga 1 raqami. chegaraviy chastotasi 30 MGs bo'lib, quvvati 1,5 Vt dan ortmaydiganlariga 5 raqami qo'yiladi. To'rtinchi element 01 dan 999 gacha qo'yilib, konstruksiya nomerini bildiradi. Beshinchi harfli element tranzistorlarni ba'zi parametrlariga qarab gruppalarga bo'linishini ko'rsatadi.

Maydonli tranzistorlar, bipolyar tranzistorlar kabi markalanadi. Farqi saqat ikkinchi elementida bo'lib P harfi qo'yilgan. Ullarning shartli belgilari 6.44- rasmida keltirilgan.

Tiristerlar ham OST 11.336.919- 81 ga muvofiq markalanadi. Shartli belgidagi birinchi, to'rtinchi va beshinchi elementlar yarim o'tkazgichli diozrniki kabi bo'ladi. Ikkinchchi element asbobning sifini bildiradi: N — dinistor, U — trinistor. Uchinchi element tiristordan o'tadigan tek kuchiga ko'ra belgilanadi. Masalan: to'g'ri tek kuchi 0,3 A dan oshmasa—1; 0,3 dan ortiq, lekin 10A dan kichik bo'lsa —2 raqami qo'yiladi.

Optoelektron asboblarni markalash quyidagi davlat standartlari asosida amalga oshiriladi:

Gost22274-80. Yarimo'tkazgichli nurlatgichlar. Terminlar, aniqlanishi va parametrlarining harfiy belgilari.

Gost23562-79. Optoparalar. Terminlar, aniqlanishi va parametrlarining harfiy belgilari.

Gost 19852-74. Fotorezistorlar. Fotodiodlar. Fototranzistorlar. Fotoelektrik parametrlari va xarakteristikaları. Terminlari, aniqlanishi va harflar bilan belgilanishi.

АДАВІҮОТЛАР

1. . Практикум по полупроводниковым приборам. Под ред. Проф.Шалимовой К.В. 1976 .
- 2 Teshaboyev А.Т., Zaynabiddinov S.Z."Yarim o'tkazgich asboblarning fotoelektrik xususiyatlari" Toshkent. 1994 .
- 3.Жеребцов И.Н. Основы электроники Л.Энергия 1974 .
- 4 Калаников С.Г. Электричество М. Наука, 1985 г, § 151-154,159,198,203-205.
5. Сивухин В.В. Общий курс физики.и. Т.III. Электричество. М.Наука, 1977.
6. Козлов В.И. Общий физический практикум. Электричество и магнетизм. М. Издательство МГУ, 1987, 270s.
7. Матвеев А.Н. Электричество и магнетизм. М.Высшая школа. 1983.
8. [http:// www.mgu.ac.ru](http://www.mgu.ac.ru).
9. [http:// www.optcom.h1.ru /](http://www.optcom.h1.ru/).

MUNDARIJA

Kirish	4
I - bob. Yarimo'tkazgich kristallarida fizik hodisalar	6
I.I.Kristallarda zonalar nazariyasi asoslari	6
I.II.Zaryad tashuvchilarning magnit maydonidagi harakati.....	9
I.III.Xoll effekti.....	10
II -bob. Yarimo'tkazgichlarda yorug'likning yutilishi.....	13
II.I.Xususiy yutilish.....	13
II.II.Eksiton yutilish.....	15
II.III.Aralashmali yutilish.....	16
II.IV.Erkin elektronlarda yutilish.....	17
III - bob.Yarimo'tkazgichlarda fotoo'tkazuvchanlik.....	18
III.I.Ichki fotoeffekt.....	18
III.II.Fotoo'tkazuvchanlik.....	19
III.III.Aralashmali o'tkazuvchanlik.....	21
IV - bob.Yarimo'tkazgichlarda nurlanish.....	22
IV.I.Yarimo'tkazgichlar lyuminessensiyasi.....	22
IV.II/Qattiq jismlarning spontan (monomolekulyar) nurlanishi.....	23
IV.III.Yarimo'tkazgichlar rekombinatsiyali nurlanishi.....	24
V - bob.Yarimo'tkazgichlar. Elektron-kovak, n-p o'tish.....	25
V.I.Xususiy yarim o'tkazgichlar.....	25
V.II.Aralashmali yarim o'tkazgichlar.....	29
V.III.Elektron-kovak, p-p o'tish.....	32
V.IV.Metal p-yarim o'tish.....	35
VI - bob.Yarimo'tkazgichli diodlar.....	35
VI.I.Yarimo'tkazgichli diod turlari.....	35
VI.II.Yarimo'tkazgichli kuchlanish stabilizatorlari.....	37
VI.III.Tunelli diodlar.....	39
VI.IV.Varikaplar.....	40
VII - bob.Tranzistorlar.....	41
VII.I.Bipolyar tranzistorlar.....	41
VII.II.Integral tranzistorlar.....	48
VII.III.Maydonli tranzistorlar.....	50

VII.III.1.Boshqariladigan p-n o'tishli maydonli tranzistorlar.....	51
VII.III.2.Zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlar.....	53
VII.IV.Tiristorlar.....	56
VIII bob.Optoelektron asboblar.....	59
VIII.I.Yorug'lik chiqaruvchi diodlar va injeksiyali lazerlar.....	59
VIII.II.Fotoelektrik yarimo'tkazgichli asboblar.....	62
VIII.III.Fotodiodlar.....	64
VIII.IV.Yarimo'tkazgichli fotoelementlar.....	66
VIII.V.Fototranzistorlar.....	69
VIII.VI.Optron asboblar.....	71
IX – bob.Yarimo'tkazgich va yarimo'tkazgichli asboblar fizikasinio'rghanishga doir laboratoriya ishlari.....	72
1-Laboratoriya ishi.Yarimo'tkazgichlarda solishtirma o'tkazuvchanlik va Xoll effektini o'rganish.....	72
2- Laboratoriya ishi.Yarimo'tkazgichli diod va diodli to'g'rilaqichlarni o'rganish.....	77
3- Laboratoriya ishi.Tiristorni o'rganish.....	81
4- Laboratoriya ishi. Bipolyar tranzistorni o'rganish.....	88
5- Laboratoriya ishi. Fotodiod va fototranzistorlarining xarakteristikalarini o'rganish.....	95
Hlova.....	99
Adabiyotlar.....	101

Xolboyev Abdukarim Muktasanovich

Yarim o'tkazgichli asboblar fizikasi. O'quv qo'llanma.

Muharrir: Mirzajonova N.

Босишга рухсат этилди 30.06.2004 й. Битими 60x84 1/16.
Шартли босма табоби 6,5. Нусхаси 100 дона. Буюртма № 398.
ТДТУ босмахонасида чон этилди. Тошкент ш, Тарабатар кўчаси 54